

**ISSN**  
ISSN 2992-9229

INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER



# TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal

2024 №1  
(3)

Samarqand-2024


ISSN 2992-9229



# TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI


“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL  
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2024



# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”  
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”

**Bosh muharrir:**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

**Juliboy ELTAZAROV**

*f.f.d., professor (O‘zbekiston)*

**Roxila RUZMANOVA**

*f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)*

## TAHRIRIYAT KENGASHI:

**Rustam XALMURADOV** – t.f.d., professor,  
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat  
universiteti rektori (O‘zbekiston);

**Hakim XUSHVAQTOV** – f.m.f.d., professor,  
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat  
universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);

**Akmal AHATOV** – t.f.d., professor,  
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat  
universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha  
prorektori (O‘zbekiston);

**Muslihiddin MUHIDDINOV** – f.f.d., professor  
(O‘zbekiston);

**Ibodulla MIRZAYEV** – f.f.d., professor  
(O‘zbekiston);

**Shuhrat SIROJIDDINOV** – f.f.d., professor  
(O‘zbekiston);

**Suyun KARIMOV** – f.f.d., professor  
(O‘zbekiston);

**Murodqosim ABDIYEV** – f.f.d., professor  
(O‘zbekiston);

**Azamat PARDAYEV** – f.f.d., professor  
(O‘zbekiston);

**Musa YULDASHEV** – f.f.n., professor  
(O‘zbekiston);

**Dilfuza DJURAKULOVA** – t.f.n., dotsent  
(O‘zbekiston);

**Aftondil ERKINOV** – f.f.d., professor  
(O‘zbekiston);

**Qosimjon SODIQOV** – f.f.d., professor  
(O‘zbekiston);

**Hamidulla DADABOYEV** – f.f.d., professor  
(O‘zbekiston);

**Ma‘rufjon YO‘LDOSHEV** – f.f.d., professor  
(O‘zbekiston);

**Jabbor ESHONQUL** – f.f.d., professor  
(O‘zbekiston);

**Muhabbat QURBONOVA** – f.f.d., professor  
(O‘zbekiston);

**Mardon BOLTAYEV** – dotsent (O‘zbekiston);

**Ali AKAR** – f.f.d., professor (Turkiya);

**Abduselam ARVAS** – f.f.d., professor (Turkiya);

**Funda TOPRAK** – f.f.d., professor (Turkiya);

**Musa Shamil YUKSEL** – f.f.d., professor (Turkiya);

**Temur KOJAO‘G‘LI** – f.f.d., professor (AQSH);

**Hayrunnisa ALAN** – f.f.d., professor (Turkiya);

**Varis CHAKAN** – f.f.d., professor (Turkiya);

**Almaz ULVI** – f.f.d., professor (Ozarbayjon);

**Emrah YILMAZ** – Phd, dotsent (Turkiya);


**Dilshod XURSANOV** – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

**Shahnoza XUSHMURODOVA** – Phd, dotsent  
(O‘zbekiston);

**Dinara ISLAMOVA** – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Mas‘ul muharrir: **PhD Zokir BAYNAZAROV**  
(O‘zbekiston);

Texnik xodim: **Raxmatulla SHOKIROV**  
(O‘zbekiston).



# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”

**Главный редактор:**

**Заместитель главного редактора:**

**Жулибой ЭЛТАЗАРОВ**

*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

**Рохила РУЗМАНОВА**

*к.ф.н., доцент (Узбекистан)*

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Рустам ХАЛМУРАДОВ** – д.т.н., профессор, ректор Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

**Хаким ХУШВАКТОВ** – д.ф.м.н., профессор, проректор по научной работе и инновациям Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

**Акмал АХАТОВ** – д.т.н., профессор, проректор по международному сотрудничеству Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

**Муслихиддин МУХИДДИНОВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Ибодулла МИРЗАЕВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Шухрат СИРОЖИДДИНОВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Суюн КАРИМОВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Муродкасым АБДИЕВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Азамат ПАРДАЕВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Муса ЮЛДАШЕВ** – к.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА** – к.и.н., доцент (Узбекистан);

**Афтондил ЭРКИНОВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Касимжон СОДИКОВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Хамидулла ДАДАБОЕВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Маруфжан ЙУЛДОШЕВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Джаббар ЭШАНКУЛ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Мухаббат КУРБАНОВА** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Мардон БОЛТАЕВ** – доцент (Узбекистан);

**Али АКАР** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Абдуселам АРВАС** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Фунда ТОПРАК** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Темур КОДЖАОГЛУ** – д.ф.н., профессор (США);

**Хайрунниса АЛАН** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Варис ЧАКАН** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Алмаз УЛЬВИ** – д.ф.н., профессор (Азербайджан).

**Эмрах ЙИЛМАЗ** – PhD, доцент (Турция);


**Дилшод ХУРСАНОВ** – PhD, доцент (Узбекистан);

**Шахноза ХУШМУРОДОВА** – PhD, доцент (Узбекистан);

**Динара ИСЛАМОВА** – PhD, доцент (Узбекистан);

Ответственный редактор: **PhD Зокир БАЙНАЗАРОВ (Узбекистан)**

Технический персонал: **Рахматулла ШОКИРОВ (Узбекистан)**



# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMİY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”  
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

**Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:**

*Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)*  
*Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)*

**Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:**

*Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)*  
*Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)*

## EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

*Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV* – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV* – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Akmal AKHATOV* – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV* (Uzbekistan)

*Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Suyun KARIMOV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Azamat PARDAEV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Musa YULDASHEV* (Uzbekistan);

*Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Aftondil ERKINOV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Khamidulla DADABOEV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Marufjon YULDASHEV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Jabbar ESHANKUL* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA* (Uzbekistan);

*Ass. Prof. Mardon BOLTAEV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Ali AKAR* (Turkey);

*Prof. Dr. Abduselam ARVAS* (Turkey);

*Prof. Dr. Funda TOPRAK* (Turkey);

*Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL* (Turkey);

*Prof. Dr. Temur KOJAĞLU* (USA);

*Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN* (Turkey);

*Prof. Dr. Varis CHAKAN* (Turkey);

*Prof. Dr. Almaz ULVI* (Azerbaijan);

*Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ* (Turkey);

*Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV* (Uzbekistan);

*Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA* (Uzbekistan);

*Ass. Prof. PhD. Dinara ISLAMOVA* (Uzbekistan);

Managing editor: *Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV* (Uzbekistan)

Technical staff: **Rakhmatulla SHOKIROV** (Uzbekistan)

*Prof. Dr. Rustam HALMURADOV* – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);

*Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV* – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

*Prof. Dr. Akmal AHATOV* – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

*Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİNÖV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİNÖV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Suyun KARİMOV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Murodkasim ABDİYEV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Azamat PARDAYEV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Musa YULDAŞEV* (Özbekistan);

*Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Aftondil ERKİNOV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Kasimcon SODİKOV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Hamidulla DADABOYEV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Marufcan YULDOŞEV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Cabbar EŞANKUL* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA* (Özbekistan);

*Doç. Dr. Mardon BOLTAYEV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Ali AKAR* (Türkiye);

*Prof. Dr. Abdusalem ARVAS* (Türkiye);

*Prof. Dr. Funda TOPRAK* (Türkiye);

*Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL* (Türkiye);

*Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU* (ABD);

*Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN* (Türkiye);

*Prof. Dr. Varis ÇAKAN* (Türkiye);

*Prof. Dr. Almaz ÜLVİ* (Azerbaycan);

*Doç. Dr. Emrah YILMAZ* (Türkiye);

*Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV* (Özbekistan);

*Doç. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA* (Özbekistan);

*Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA* (Özbekistan);

Sorumlu Editör: *Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV* (Özbekistan)

Teknik Personel: **Rahmatullah ŞOKİROV** (Özbekistan)

**MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ**

**TURK DUNYOSI TADQIQOTLARI**

**Annagurban AŞIROV**

MAHTUMKULU FİRÂKÎ: TÜRKMEN HALKININ MİLLÎ GURURU ..... 5

**Yusuf AZMUN**

TÜRKMEN ŞAİRİ MAHTINGULI VE ONUN ESERLERİ HAKKINDA BİLİNMESİ GEREKEN KONULAR: I..... 16

**Begmırat GEREY**

BÜYÜK FİRÂKÎ HAKKINDA DÜŞÜNCELER (CEMŞİT'İN KADEHİNE BİR BAKIŞ)..... 32

**Abdurrahman GÜZEL**

TÜRK DÜNYASINDA “MAHTUMKULU EKOLÜ” ÜZERİNE KISA BİR DEĞERLENDİRME..... 46

**Emrah YILMAZ**

MAHTUMKULU FİRÂKÎ VE OKUDUĞU MEDRESELER ..... 51

**Tazegül TAÇMAMMEDOVA**

TÜRKMEN ŞAİRLERİNİN ŞİİRLERİNDE MAHTUMKULU'NUN EDEBÎ MEKTEBİ ..... 63

**Usmon Qobilov**

TURKIY-O‘ZBEK ADABIYOTIDA TAVHID, NUBUVVAT VA BADIYYAT MASALALARI ..... 68

**Dövmırat YAZKULIYEV**

BEYİK AKYLDARYŇ ŞALARY WASP EDÝÄN ŞYGYRLARY HAKYNDA ..... 82

**Abdulla Ulug‘ov**

"O‘RTANDIM, YONDIM" ..... 93

**TURKIY XALQLAR DIALEKTOLOGIYASI**

**Berdi SARIYEV**

TÜRKMEN TÜRKÇESİNDE “SÖZ” KAVRAMI..... 109

**Tagandurdi BEKJAYEV**

MAHTUMKULU ESERLERİNDE FRAZEOLJİK VARYANTLAR ..... 119

**Raxmatulla SHOKIROV**

SOVET ITTIFOQI DAVRIDA O‘RTA OSIYODA OLIB BORILGAN TOPONIMİK O‘ZGARISHLAR VA ULARNI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI ..... 127

**Севиля БАДАЛОВА, Фахриддин ШОДИЕВ**

ЗАЙМСТВОВАНИЯ ИЗ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ В СОСТАВЕ РУССКОЙ ЛЕКСИКИ ... 133

**TURKIY XALQLARNING IJTIMOYIY-MADANIY ALOQALARI TARIXI**

**Foziljon SHUKUROV**

SAMARQAND ADABIY MUHITINING ADABIYOT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI ..... 140

**Dilfuza DJURAKULOVA**

TURKISTON MINTAQASIDAGI ENG QADIMGI MIGRATSION JARAYONLAR ..... 145

**Yoo Inyoung**

O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI DAVLAT UYUSHMALARINING KOGURYO VA SILLA DAVLATLARI BILAN IQTISODIY-MADANIY ALOQALARI ..... 150

**Nurbek ALLABERGENOV**

ILK O‘RTA ASRLARDA O‘RTA OSIYO MINTAQASIDA YUZ BERGAN SIYOSIY VA ETNOMADANIY JARAYONLAR VA ULARNING TANGA ZARBIGA TA‘SIRI ..... 157

**Hilola NORMAMATOVA**

ILK O‘RTA ASRLAR O‘RTA OSIYO TANGALARIDA O‘RIN OLGAN TAMG‘ALAR.... 165



### **AZIZ MUSHTARIY!**

*Turkologik tadqiqotlarni e'lon qiladigan jurnalimizning ushbu sonida ham til, madaniyat va mushtarak qadriyatlarimiz izlarini topasiz. Ahmad Yassaviy, Fuzuliy, Yunus Emro, Alisher Navoiy, Abay ijodi kabi qalbga kirib, insonning dunyoqarashini o'stiradigan, uni rivojlantirish va qayta qurishni o'ziga vazifa qilib olgan mushtarak qadriyatlarimizdan biri Maxtumquli Firog'iy ijodidir. YUNESKO tomonidan 2024-yil tavalludining 300 yilligi deb e'lon qilinishi adabiyot ixlosmandlari, siyosatchilar va ilmiy doiralarning yana bir bor e'tiborini Maxtumquliga qaratishga sabab bo'ldi. Shuning bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 19-fevralda "Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog'iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorini e'lon qilib, mutafakkir shoirning ijodini yana-da chuqurroq o'rganishga asos yaratib berdi. Shu munosabat bilan jurnalimizning 3-sonini ta'lim hayotining salmoqli qismini O'zbekistonning serhosil zaminida o'tkazgan mutafakkir shoir xotirasiga bag'ishlashga qaror qildik. Ushbu sonda "Turkman xalqining milliy g'ururi, shoir va uning ijodi haqidagi masalalar, Maxtumquli adabiy maktabi, tahsil olgan madrasalar, o'zbek adabiyotida tavhid, nubuvvat va badiiyat masalalari, Firog'iy haqidagi fikrlar, ulug' donishmand tomonidan sultonlarga berilgan tavsiflar, turkman tilidagi so'z tushunchasi, frazeologik variantlar" kabi mavzularga bag'ishlangan maqolalar kiritildi.*

**TAHRIRIYAT**

**DEAR READER!**

*You will find traces of our language, culture and common values in this issue of our journal, which publishes Turkological researches. One of our common values is Makhtumkuli Firaghi's work, which penetrates into the heart, develops a person's worldview, and takes it upon himself to develop and reconstruct it, such as the works of Ahmad Yassavi, Fuzuli, Yunus Emro, Alisher Navoi, Abay. The declaration of the 300th anniversary of his birth by UNESCO in 2024 rised the attention of literature lovers, politicians and scientific circles to once again focus on Makhtumkuli. At the same time, by announcing the decision of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev on 19.02.2024 "On the wide celebration of the 300th anniversary of the birth of the great Turkmen poet and thinker Makhtumkuli Firaghi", created the basis for a deeper study of the work of the great poet. In this regard, our editors have decided to dedicate the 3rd issue of our magazine to the memory of the great poet who spent a significant part of his educational life in the fertile land of Uzbekistan, as a debt and symbol of gratitude. In this issue, "the national pride of the Turkmen people, the necessary questions about the poet and his work, the literary school of Makhtumkuli, the madrassas where he studied, the issues of monotheism, prophecy and artistry in Uzbek literature, thoughts about Firaghi, descriptions given by the great sage to the sultans, word concept, phraseological variants" given in Turkman language are included.*

**EDITORIAL BOARD**

**SEVGİLİ OKUYUCU!**

*Türkoloji araştırmalarını sürdüren dergimizin bu sayısında dilimizin, kültürümüzün ve müşterek değerlerimizin izlerini bulacaksınız. Ahmet Yesevî, Yûnus Emre, Ali Şîr Nevâyî, Muhammed Fuzûlî, Abay Kunanbayev, Toktogul Satılganov gibi gönle girip, kişinin dünya görüşünü geliştiren ve insanı yeniden inşa etmeyi kendine görev edinen müşterek değerlerimizden biri de Mahtumkulu Firâkî'dir. 2024 yılının UNESCO tarafından doğumunun 300. yılı olarak ilan edilmesi edebiyatseverlerin, siyasetçilerin ve bilim çevrelerinin dikkatinin bir kez daha Mahtumkulu'ya yöneltmesine sebep olmuştur. Bununla birlikte Özbekistan Cumhuriyeti Cumhurbaşkanı Şevket Mirziyoyev 19.02.2024 tarihinde "Büyük Türkmen şairi ve düşünürü Mahtumkulu Firâkî'nin doğumunun 300. yıldönümünün geniş çapta kutlanmasıyla ilgili" kararını açıklaması, mütefekkir şairin eserlerinin daha derinlemesine incelenmesi için bir temel oluşturdu. Bu vesileyle tahrir heyetimiz bir kalem ve gönül borcu olarak dergimizin 3. sayısını; tahsil hayatının önemli bir kısmını Özbekistan'ın mümbit ikliminde geçiren mütefekkir şairin anısına bağışlamaya karar vermiştir. Bu sayıda "Türkmen halkının millî gururu, şair ve eserleri hakkında bilinmesi gereken konular, Mahtumkulu edebî mektebi, okuduğu medreseler, Özbek edebiyatında tevhid, nübüvvet ve bediyyat meseleleri, Firâkî'ye dair düşünceler, büyük bilgenin sultanları tasviri, Türkmence'de söz kavramı, frazeolojik varyantlar" gibi konu başlıklarına yer verilmiştir.*

**YAYIN KURULU**

**УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!**

*Следы нашего языка, культуры и общих ценностей вы найдете в этом номере нашего журнала, в котором публикуются тюркологические исследования. Одной из наших общих ценностей является творчество Махтумкули Фраги, которое проникает в самое сердце, развивает мировоззрение человека и берет на себя задачу его развития, как, например, произведения Ахмада Яссави, Физули, Юнуса Эмро, Алишера Навои, Бухта. Объявление ЮНЕСКО 2024 года 300-летием со дня его рождения Махтумкули заставило вновь обратить внимание любителей литературы, политиков и научных кругов на мыслителя. Вместе с тем, объявив решение Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева от 19.02.2024 года «О широком праздновании 300-летия со дня рождения великого туркменского поэта и мыслителя Махтумкули Фраги», наше правительство создало основу для более глубокого изучения творчества поэта-мыслителя. В связи с этим наша редакция приняла решение посвятить 3-й номер нашего журнала памяти поэта-мыслителя, проведшего значительную часть своей образовательной жизни на благодатной земле Узбекистана, как долг и символ благодарности. В этом номере освещены такие темы, как национальная гордость туркменского народа, необходимые вопросы о поэте и его творчестве, о литературной школе Махтумкули, медресе, в которых он учился, вопросы единобожия, пророчества и художественности в узбекской литературе, мысли о Фраги, а также включены описания, данные великим мудрецом султанам, туркменский язык, такие наименования, как словосочетание, фразеологические варианты».*

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ**



### MAHTUMQULI HAQIDA!

Turkman mumtoz adabiyotining yetakchi shoiri Maxtumquli Firog‘iy (1724-1807) mutafakkir inson sifatida sivilizatsiyamiz tarixida eng ko‘zga ko‘ringan namoyondalardan biridir. U Eronning Guliston viloyatiga qarashli Gunbedkavus shahri yaqinidagi Xojigovshan qishlog‘ida Davlatmahmad Ozodiy oilasida tug‘ilgan va vafotidan so‘ng Turkmansahrodagi Oqto‘qay qishlog‘i maqbarasida otasi yoniga dafn etilgan. U avval ovul maktabida, so‘ng 1753-yilda Qiziloyoqdagi (Lebap viloyati Xalach tumani) Idrisbobo, 1754-yilda Buxorodagi Ko‘kaldosh, 1757-yilda Xivadagi Sherg‘ozixon, Farg‘onadagi Andijon madrasalarida tahsil oladi. Maxtumquli yoshligida bir qancha fanlarni chuqur o‘zlashtiradi, shu bilan birga, zargarlik hunarini ham o‘rganadi.

Ozarbayjon, Suriya, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, O‘rta Osiyo mamlakatlariga sayohatlar qiladi. Forobiy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Firdavsiy, Mansur Halloj, G‘azali, Zamaxshariy, Naimiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Nizomiy, Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bayram Xon, Nejep Bekpan, Ulug‘bek kabi ko‘plab mutafakkirlarning asarlarini o‘qib ijodlaridan bahramand bo‘adi, hatto Aflotun, Arastu, Xelen kabi mutafakkirlarning falsafiy qarashlari bilan ham yaqindan tanishadi.

XVIII asr turkman adabiyotining eng muhim namoyandalardan biri bo‘lgan va turkmanchani yozma til bo‘lishiga asos solgan Maxtumqulining birdamlik xabarlar va sa‘y-harakatlari mustaqil Turkmaniston Respublikasining siyosiy kodlarini ochib beruvchi eng sara fikrlarni ifodalaydi. Shoirning didaktik uslubda yozilgan she‘rlarida tarqoq turkman qabilalarining birlashishi lozimligi, mustaqil davlat barpo etish g‘oyasi, Vatanga va xalqqa muhabbat, siyosiy-ijtimoiy tanqid, falsafiy qarashlar, axloqiy tushunchalar, so‘fiylik ta‘limotlari va nasihatlarini ifodalangan.

Maxtumquli adabiy merosida o‘zbek-turkman ellarining qon-qardoshlik tuyg‘ulari ifodalanadi. 9 yoshidan (otasi uyidagi yig‘inlar ta‘sirida) qo‘shiq to‘qiy boshlaydi. Maxtumquli she‘riyatini umumturkiy mushtarak g‘oyalar, dardlar, orzu-armonlar bilan yo‘g‘rilgan. Uning ma‘rifiy asarlarida, pandu nasihatlarida umumturkiy ma‘naviyat yaqqol mujassam. Shoir haqida turli geografiyalarda hikoya, roman, drama, ocherk, xotira va rivoyat kabi nasriy adabiy janrlardan tashqari nazm shaklidagi asarlar, jumladan, xalq qo‘shiqlari, lirik va epik she‘rlar ham yaratilgan.

Xorazmning serhosil iqlimida so‘fiylik bilan o‘sib-ulg‘aygan Maxtumquli, shubhasiz turkman xalqi shoirlarining ma‘naviyat tabibi, siyosiy dahosi, omad yulduzidir. U bir qancha lirik she‘rlar, liroepik dostonlar, g‘azallar yozadi. Bizgacha uning 20 ming misraga yaqin she‘rlari yetib kelgan. Ularda xalq hayoti, urf-odatlar, o‘sha davrdagi ijtimoiy voqealar aks etgan («Bo‘lmasa», «Kelgay», «Naylayin», «Etmas», «Bo‘lar», «Kechdi zamona», «Bilinmas» kabi she‘rlari).

Turkmaniston davlatini Maxtumqulisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi; chunki u turkman xalqining ramzidir. Shoir ijodida asosiy o‘rinni egallagan mavzulardan biri ham mustaqillik tushunchasidir. Turkmanlarni bir davlat, bir bayroq ostida, bir dasturxon atrofida yig‘ilishga chaqirgan mutafakkir “Turkmaning” nomli she‘rida birlik haqidagi fikrlarini quyidagicha ifodalaydi:

Turkmanlar bog‘lasa bir bo‘lib belni,  
Quritar Qulzumni, daryoyi Nilni,  
Taka, yovmut, go‘klang, yazir, alili,  
Bir davlatga xizmat etsak beshimiz.

Maxtumquli ijodini oziqlantiruvchi uchta asosiy manba mavjud: Turkman xalq adabiyoti, Sharq mumtoz adabiyoti, yunon va hind falsafasi. Uning yetti yuzga yaqin she‘rlariga nazar tashlasak; shoirning falsafa, sotsiologiya, tibbiyot, matematika, ilohiyot, musiqa, xalq adabiyoti, xalq tabobati va zargarlik kabi ko‘plab fan va san‘at sohalaridan xabardor bo‘lganligi ma‘lum bo‘ladi. She‘rlari tahlil qilinsa, bir qator sohaga tegishli ilmlardan xabardor bo‘lganligi anglashiladi. Shu jihatdan shoirlik sifati unga yetarli ta‘rif emas. U diniy va milliy mavzularni mukammal yoritgan asarlari bilan o‘z chegarasidan chiqib, mutafakkir shoir bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi. Darhaqiqat, tavalludining 300 yilligi munosabati bilan YUNESKO tomonidan 2024-yilning “Mahtumquli Firog‘iy yili” deb e‘lon qilinishi ham buning yana bir yorqin ifodasidir. Bu holat Turkmaniston madaniy diplomatiyasining bosh me‘mori Maxtumquli ekanligini ko‘rsatishi bilan ham ahamiyatlidir. Binobarin, shoirdan qolgan asarlar nafaqat turkmanlar, balki butun insoniyat uchun noyob madaniy boylikdir. U Sharq-islom sivilizatsiyasining Marv, Samarqand, Xiva, Buxoro, Andijon kabi qadimiy madaniyat markazlaridan o‘ziga meros qolgan tarixiy bilimlar bilan voyaga yetdi va “Haq yo‘lida yo‘l ko‘rsatuvchisiz sayr qilib bo‘lmaydi” deb Turkistonning ma‘naviy chiroqlari bilan rishtalar o‘rnatgan va qalbida yoqqan hikmat uchqunlari bilan yo‘limizni yorituvchi mash‘alaga aylangan.

Mirzo Kenjabek ta‘biri bilan aytganda: Maxtumquli – turkiy xalqlarning sayroqi tili, sahraning guli, gulning bulbuli, Haqning sodiq, oshiq va orif qulidir.

“O‘RTANDIM, YONDIM...”

**Abdulla ULUG‘OV**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori  
E-mail: ulugovabdulla05121960@gmail.com  
ORCID: 0000-0003-1459-7090

**Annotatsiya:** Ulug‘ turkman shoiri Maxtumquli Firog‘iy ijodi turkiy xalqlar adabiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi. Uning she‘rlari nafaqat turkman, balki o‘zbek, turk, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz xalqlari orasida asrlar davomida mashhur bo‘lib kelgan. Maxtumquli ijodiy merosi turkiy xalqlar ma‘rifiy she‘riyati sahifalarini bezab turadi. Bu shoirning she‘rlari islom dinining insonparvarlik g‘oyalari asoslangani, fikr juda sodda, oddiy va ta‘sirchan tarzda ifodalangani bilan boshqa qalamkashlarning she‘rlaridan alohida ajralib turadi. Maxtumquli she‘rlari mavzu jihatidan xilma-xil bo‘lib, ularning umumiy ma‘no-mazmunini pand-nasihat, o‘git belgilaydi. Shoirning pand-nasihat, o‘gitlari butun insoniyatga, qaysi zamonda, qanday manzil-makonda yashashidan qat‘iy nazar murojaat, xitob bo‘lib jaranglaydi.

Mazkur maqolada Maxtumquli she‘rlarining asosiy qahramoni uning o‘zi ekanligi ta‘kidlanib, ularning badiiy xususiyatlari, o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida mulohaza bildiriladi. Shoirning savol-javob, aytishuv shaklidagi she‘rlarida islom dini, undagi hayotsevarlik, insonparvarlik g‘oyalari e‘tibor qaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** turkman shoiri Maxtumquli, ma‘rifiy she‘riyat, islom dini g‘oyalari, zamona norasoliklaridan nolish, odamlar fe‘l-atvoridagi illatlarni tanqid qilish, ijtimoiy adolatsizlik, savol-javob, sodda, oddiy so‘zlardan tarkib topgan ta‘sirchan misralar, pand-nasihat, o‘git.

---

“I COVERED MYSELF, I BURNED”

**Abstract:** The art of the great Turkmen poet Makhtumkulu Firaghi has a special place in the literary history of the Turkic peoples. His poems have been popular for centuries not only among Turkmens, but also among Uzbek, Turkish, Azerbaijani, Kazakh and Kyrgyz peoples. Makhtumkulu's creative heritage adorns the pages of the wise poems of the Turkic peoples. The poems of this poet differ from the poems of other writers in that they are based on the humanistic ideas of Islam and this idea is expressed in a very plain, simple and impressive way. Makhtumkulu's poems vary in subject matter, and their general meaning is determined by advice and instruction. The poet's advice and teachings are an appeal to all humanity, regardless of the time and place he lives in.

In this article, it is emphasized that Mahtumkuli is the protagonist of his poems and comments are made about the artistic features and unique aspects of the poems. In the poet's poems, emphasis is placed on the ideas of Islam, life-giving and humanism in the form of questions and answers.

**Key words:** Turkmen poet Makhtumkuli, his wise poems, the ideas of the Islamic religion, complaining about the inadequacies of the time, criticizing people's character flaws, social injustice, question and answer, simplicity, impressive verses consisting of simple words, advice, recommendations.

---

«Я ПОКРЫЛСЯ, Я СГОРЕЛ»

**Аннотация:** Творчество велико туркменского поэта Махтумкули Фраги занимает особое место в истории литературы тюркских народов. Его стихи на протяжении веков

пользовались популярностью не только у туркмен, но и у узбекского, турецкого, азербайджанского, казахского, киргизского народов. Творческое наследие Махтумкули украшает страницы просветительской поэзии тюркских народов. Стихи этого поэта отличаются от стихотворений других авторов тем, что они основаны на гуманистических идеях ислама, мысль выражена очень просто, незатейливо и действенно. Стихотворения Махтумкули тематически разнообразны, и их общий смысл определяется дидактикой. Увещевание поэта как призыв для всего человечества, независимо от того, в какое время и в каком месте оно живет, как призыв, восклицание.

В статье подчеркивается, что Махтумкули является главным героем его стихов, а также даются комментарии о художественных особенностях и уникальных аспектах стихотворений. В стихотворениях поэта в форме вопросов и ответов акцентируется внимание на идеях ислама, жизнелюбия и гуманизма.

**Ключевые слова:** туркменский поэт Махтумкули, просветительская поэзия, идеи исламской религии, протест против неурядиц современности, критика пороков в человеческом характере, социальная несправедливость, вопросы и ответы, трогательные стихи, состоящие из простых, панд-увещеваний, поучений.

Maxtumquli (1733 – XVIII asr 80-yillari) she’riyati u qandaydir favqulodda inson bo’lgani, tevarak-atrofidagilar esa undagi ana shu xususiyatni payqamagani, sezmagani va shu bois qavm-qarindoshlari ham, boshqalar ham bu ulug’ zotni ko’p-da qadrlamaganidan dalolat beradi. Vaholanki, uning katta-yu kichik barcha she’rlari insoniylik mohiyatidan saboq berish yo’lida o’rtanib, yonib yashagani, ilohiy ilhom og’ushida ijod qilganidan dalolat beradi. Bu ulug’ shoirning barcha mavzudagi she’rlari kishilarni beixtiyor o’ziga jalb etadi. Ularga hech kim loqayd, befarq qaray olmaydi. Bu serg’alva hayotda odamlar e’tiborini tortadigan voqea-hodisalar, hammaning havasini keltiradigan, ko’pchilikni qoyil qoldiradigan kishilar esa hamisha ko’p bo’ladi. Ammo vaziyat o’zgarishi tufayli ularning mashhurligi o’z-o’zidan qumga singigan suvday yo’q bo’lib, unutilib ketadi. E’tiborni tortgan voqea-hodisalar tezda eskirib, o’z o’rnini zudlik bilan yangi o’zgarishlarga bo’shatib beradi. Nom qozongan arboblal, amaldorlar, barchani mahliyo qilgan sportchilar, artistlar, qisqa bir fursat “yulduz” bo’lib charaqlaydi. Bu muddat, odatda, bir-ikki yil, nari borsa, besh yil davom etadi. Mashhurlik cho’qqisida o’n yil-yigirma yil turish kamdan-kam kishilarga nasib etadi. Odamzod unutuluvchan mavjudot ekanligi bois bir necha yil davom etgan urushlar, mislsiz vayrongarchilik keltirgan zilzila, to’fonlar, ming-minglab, millionlab odamlarni hayotdan olib ketgan vabo, koronavirus va boshqa kasalliklar xuruj qilgan zamonlar, qurg’oqchilik ortidan ergashib kelgan ocharchilik, qahatchiliklar zabtiga olgan davrlarni ham tezda esidan chiqaradi. Ana shu ne’mat berilmaganida, ya’ni insoniyat boshiga tushgan fojialarni, kechirgan azob-uqubatlarini unutilmaganida esa, u iztiroblar iskanjasida ezilib, adoitamom bo’lar, yashay olmas edi. Olloh bandalariga bergan behisob ne’matlari qatoriga unutilishni ham qo’shmaganida, ular kutilmagan o’zgarish, yangilanishlar bilan kechadigan bu dunyoda mutlaqo hayot kechirilmas edi... O’zgarish, yangilanishlar to’la ayni hayot “sahna”sini juda kam bo’lsa-da, nomlari unutilmaydigan, faoliyati ming-minglab, millionlab odamlarga tuganmas manfaat yetkazadigan, qoldirgan merosi hamisha zamonaviy bo’lib qoladigan insonlar nomi bezab turadi.

Ulug’ turkman shoiri, mutafakkiri Maxtumquli ana shunday tabarruk siymolardan biri sifatida xuddi Nizomiy Ganjaviy (1141 – 1209), Sa’diy Sheroziy (1203 – 1292), Hofiz Sheroziy (1325 – 1388), Alisher Navoiy (1441 – 1501) singari insoniyat hayotida mustahkam o’rin egallab

keladi. She’rlari barcha turkiy xalqlar uchun birday tushunarli bu benazir shoir ijodi ma’rifatga talpingan qalblarga bir necha zamonlardan beri malham bo’lib quyuladi. Globallashgan XXI asr kishisi ham bu shoirning she’rlarini o’qiganida, birinchi galda, she’riyat, umuman, san’at uchun eng muhim narsa ijodkorning shaxsiyati ekanini anglab yetadi. Maxtumqulining istalgan she’ri mutolaa qilinganida, bu holat ayni haqiqat ekaniga, albatta, ishonch hosil qilinadi. Chunki bu shoirning eng qisqa, kichkina, arziyasday tuyuladigan she’rlari ham o’rtanib, yonib yozilgani, insonlik mohiyatidan saboq beradigan salmoqqa ega ekanligi bois u yashagan zamonning o’ziga xos ziddiyatlari, murakkabliklari manzarasi, uning azob-uqubatlarga, ruhiy iztiroblarga to’la shaxsiyati to’g’risida ko’p narsani ma’lum qiladi. Maxtumquli she’rlari o’zining ana shu jihati bilan ham she’riyatni unchalik xush ko’rmaydigan odamlarni ham befarq qoldirmaydi. Ular har bir kishida, ozdir-ko’pdir, she’riyatga, badiiy so’zga, shoirning odam va olam to’g’risidagi hikmatomuz mulohazalariga, odamzodning hayoti turgan-bitgani azob, mashaqqat ekani to’g’risidagi teran xulosalariga qiziqish uyg’otadi.

Maxtumquli she’riyatining shon-shuhrati u islom dini, undagi chuqur insonparvarlik, hayotsevarlik falsafasiga asoslanganidan kelib chiqadi. U ana shunday mustahkam poydevorda turganligi tufayli zamonlardan zamonlarga, ellardan ellarga oshib, yangicha joziba, chiroy ochib yashaydi. Shoirning o’rtanib, yonib yozgan she’rlarida tuyg’u, hissiyot ma’no-mazmun bilan tabiiy tarzda o’zaro uyg’unlashib, danak ichidagi yalakat mag’izga o’xshab ketadi va mavzusi, hajmining katta-kichikligidan qat’iy nazar, inson bo’lib yashash uchun nima qilish kerakligidan saboq beradi. Maxtumquli o’zidan avval va keyin yashagan barcha shoirlardan tuyg’u, fikrlarini barcha birday oson tushunadigan sodda va oddiy tilda ifoda etishi jihati bilan alohida ajralib turadi. Uning she’rlarini dunyoning sir-jumboqlarini nozik his etish va kechinma, fikrni juda ta’sirchan ifodalashning mumtoz namunasi, desa bo’ladi. Bu turkman shoirining yozganlari o’zining ana shu ajoyib xususiyati bois turkiy dunyo ma’rifiy she’riyati uchun andoza bo’lib keladi. Musulmon Sharq she’riyatining o’ziga xos xususiyatlaridan bexabar, undagi ramz, ishoralar ma’no-mohiyatini bilmaydigan kishilar ham Maxtumquli she’rlarini miriqib mutolaa qiladi. Ular asosida aytilgan qo’shiq, ashulalarni maza qilib eshitadi. Chunki bu shoir kitob sahifalarida turgan misralarida ham, qo’shiqqa aylangan satrlarida ham kishiga bir olam zavq bag’ishlaydigan yoki uni beixtiyor o’ylantirib, iztirobga soladigan teran ma’noli salmoqli fikrlarni taqdim qiladi. Hayotning ayni o’zidan olingan, tarixi ko’p olis zamonlarga borib bog’lanadigan, turmushning olovi hech qachon o’chmaydigan sinov-tajriba qo’rasida yonib toblangan bu fikrlar miyaning tub-tubiga yetib borib, uning jamiki hujayralarini zirillatib yuboradi.

Sur’ati, shitobi tez, har daqiqasi yangiliklarga, har soati o’zgarishlarga to’la XXI asr odamlarini uncha-muncha narsa-hodisa ajablantirmasligi, hayratga solmasligini barcha yaxshi biladi. 2024-yilda shoir tavalludining uch yuz yilligi sanasi barcha mintaqalarda keng nishonlanadi. Bizdan shuncha zamon avval yashab o’tgan shoir: “Har kim yomonlasa tengi-to’shini, // O’zi mushkul etar oson ishini. // Kim tark etsa aql bilan hushini, // Qilar ishin bilmas, sharmsor bo’lar” deganda barcha asrlar haqiqatini chin dilidan juda o’rtanib, yonib, g’oyat ta’sirchan etib, ayrganini tan oladi (Maxtumquli. Saylanma: She’rlar. Turkmanchadan Mirzo Kenjabek tarjimasi. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2004. – 256 b. – 44 bet). Bu shoir boshqa she’rlarida ham hamma zamonlarda hukm suradigan ko’p hodisalarga diqqatni jalb etganiga, zamondoshlarimiz, albatta, qoyil qoladi. Chunki u: “Dunyo daroz, umr qolmas, // Ajal kelsa, chora bo’lmas. // Ne ish bo’lar – odam bilmas, // Barcha ish Haqning koridir” deydi (O’sha manba. – 47-bet). Ulug’ shoirning turli mavzudagi barcha she’rlari, hajmi katta-kichikligidan qat’iy nazar, uning qalbining tub-tubiga ijod qilish instinkti chuqur joylashib olgani, unda o’rtanib, yonib she’r

bitish istagi tiyiqsiz xohishga aylanganini namoyon qiladi. Ularning har biri mazmuni teranligi, badiiy manzarasi ko‘rkamligi, katta-yu kichikka birday tushunarligi, eng muhimi, g‘oyat ta’sirchanligi bilan shoirga qo‘yilgan haykal bo‘la oladi. Shoirning o‘rtanib, yonib yozgan she’rlarini mutolaa qilganlar, ularga bastalangan qo‘shiqlarni tinglaganlar qalbida uyg‘ongan zavq-shavq tug‘yonidan, ko‘nglida boshlangan o‘y-kechinmalar zalvoridan beixtiyor entikadi. Chunki bu she’rlar har bir odamni qalbida qo‘zg‘algan g‘alayondan, o‘zining ong ostida jo‘sh urgan shiddatli jarayondan xabardor qiladi. She’rning, umuman, san’atning ahamiyati va qadri esa xuddi shu narsa bilan belgilanadi. Agar she’r, kuy, qo‘shiq, doston, hikoya, qissa, roman, spektakl, kino ana shunday ta’sir kuchiga ega bo‘lmaganida edi, san’at odamzod hayotida bu qadar mustahkam o‘rin egallay olmas edi.

Maxtumquli insoniyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan barcha ulug‘ siymolar singari o‘zining ahvoli, faoliyatiga, zamondoshlarining dunyoqarashi, o‘zaro munosabatlariga tanqidiy nuqtai nazardan qaraydi. Bunda u muqaddas islom dinining insonparvarlik, hayotsevarlikka asoslangan tartib-mezonlaridan kelib chiqadi. Shu bois shoir inson sha’niga nomunosib, “koinot gulto‘ji”ga yarashmaydigan, uni tahqirleydigan har qanday holat, harakatning har bir tafsilotini dard, alamga to‘lib, iztirobga tushib, bayon qiladi. Masalan, “Ota-o‘g‘il dardlashuvi”da Maxtumquli: “Kishi so‘zlamasa, siri fosh bo‘lmas, // Yaxshini, yomonni bilgan yosh bo‘lmas... // Qalbinga kiribdir Islom havasi, // Tangadir, dirhamdir xalqning tamasi” deydi (O‘sha manba. – 28-bet). Shoir boshqa she’rlarida ham ma’rifiy adabiyotning pand-nasihatga yo‘g‘rilgan yorqin xususiyatlarini shu tarzda o‘rtanib, yonib ta’sirchan ifoda etadi. Shoir “Xush qol, go‘zal”, “Sherg‘ozi!” she’rida ta’lim olishga da’vat qilish ma’rifatparvarlik adabiyotida markaziy o‘rin tutishi va buning sabablarini: “Haqdan bizga buyruq, farz erur bilim, // Senda ta’lim oldim, ochildi dilim... // Ajratarman endi oqu qorani, // Do‘st-raqib, qardoshim, haqni, yoroni...” tarzida ta’sirchan yoritadi (O‘sha manba. 29-bet).

“Turgil!” dedilar”, “Bir jum’a kechasi” she’rlari Maxtumquli zamondoshlari singari ko‘pchilikning biri emas, bo‘lakcha inson bo‘lganini ma’lum qiladi. Shoir har ikkala she’rida tunda uxlab yotganida tush ko‘rgani to‘g‘risida so‘zlaydi. Bu tushlar ma’no-mazmuni jihatidan bir-biriga juda o‘xshaydi. “Turgil!” dedilar” she’ri: “Bir kecha yotardim, tunning yarmida, // To‘rtta otliq kelib: “Turgil!” – dedilar. // Xabar bergaydirmiz fursat yetganda, // Shul yerda erlar bor, ko‘rgil!” – dedilar” deb boshlanadi (O‘sha manba. 24-bet). Har bandi to‘rt, jami yigirma sakkiz misrali “Bir jum’a kechasi”ning birinchi bandida: “Bir jum’a kechasi ko‘rdim tushimda: // Bol urib, ko‘klarga uchdim, yoronlar. // Parvoz aylab, sayron etdim dunyoni, // Bir obodon joyga tushdim, yoronlar” deyiladi (O‘sha manba. 35-bet). “Turgil!..”, “Bir jum’a kechasi”ga o‘xshash she’rlar esa mumtoz adabiyot namoyandalari ijodiy merosida juda kam kuzatiladi. Chunki kamdan-kam odamlar tushida payg‘ambar alayhissalomni, chahoryorlar, aziz avliyolarni ko‘rishga muyassar bo‘ladi. Maxtumquli bir qator she’rlarida o‘zida shunday holat kechgani va o‘sha paytda tushida ko‘rganlarini: “Dashtdan chiqdi oltmish otliq, ko‘rdilar, // “Muhammad!” deb bari qarshi yurdilar...// Bir otning ortiga meni berdilar, // Sayronda shul joyga borib turdilar, // Bari o‘ltirdilar, majlis qurdilar; // Manga: “O‘g‘lon, aro kirgil!” – dedilar. // “Alidir”, – dedilar, tutdi dastimdan, // Bo‘ryo to‘shagimni oldi ostimdan, // Bilmadim, bir zot ne quydi ustimdan, “Yo‘liqqan davron bu, surgil!” – dedilar. // Haydar (hazrati Ali (r.a.)dan so‘radim barin otma-ot, // “Hazrati Payg‘ambar uldir, bo‘lma yot, // Bul Salim Xojadir, bul Bobo Zuryod, // Bul Vaysal-Qarandir (Hazrati Uvays Qaraniy), bilgil!” – dedilar. // “Ul Bahouddindir, ul ham bir erdir, // Ul Zangi Bobodir, ul ham nomdordir, // U yonma-yon turgan chahoriyordir, // Maqsading ne bo‘lsa, aytgil!” – dedilar. // Shul zamonda turgan ikki shayxi shob (yosh, navqiron): // “O‘g‘longa fotiha bering, dedi, sof!” // “Yuz

yigirma to‘rt ming anbiyo, as‘hob, // Barisi shundadir, bilgil!” – dedilar. // Rasululloh (s.a.v.), aytdi: “Yo Shohimardon! // Ayo Salim Xoja, yo Bobo Salmon (Salmon Forsiy roziallohu anhu)! // Abu Bakr Siddiq, yo Umar, Usmon! // Bu qulning maqsudin bergil!” – dedilar. // Salim, Bobo Salmon buyurdi mardga, // Piyolani tutib, soldilar dardga, // Ketdi aqlu hushim, yotdim shul yerda, // “Arshda, Farshda borin ko‘rgil!” – dedilar. // El bo‘ldim, yugurdim, er tomiriga, // Nazarim to‘qindi Arsh kamariga, // “Jabrut olaminda (ilohiy olam) Jalil siriga, // Kelib, o‘zing qarab, ko‘rgil!” – dedilar. // Neki xayol qilsam, qo‘lga keltirdim, // Qayga boqsam, unga nazar etirdim, // Bu hol bila farog‘atda yotardim, // Yuzimga dam urib, “Turgil!” – dedilar. // Rasululloh (s.a.v.) aytdi: “As‘hoblar, yuring, // O‘g‘lonni kuzating, fotiha bering”. // Aytdi to‘rt otliqqa: “Eltib, topshiring, // Keltirgan joyingga qo‘ygil!” – dedilar. // Turib, Maxtumquli, ko‘zin ochibdir, // Boshiga ne ko‘ylar kelib-kechibdir, // Mast tuyadek oq ko‘piklar sochibdir, // “O‘g‘lon, Alloh yoring, borgil!” – dedilar” tarzida bayon qiladi (O‘sha manba. 24-26-betlar). Maxtumqulining ushbu mulohazalari ilohiyotga daxldor barcha hodisalar singari tush ko‘rish ham inson aql-tafakkuriga asoslangan mantiq mezonlari qolipiga sig‘masligi, tush hodisasi uchun zamon va makon yoki son-sanoq, miqdor kabi tushunchalar ahamiyatsiz ekaniga isbot bo‘la oladi. G‘aroyib, sirli hodisa sanaladigan tush esa insonning ruhi, ichki tabiati va kundalik turmushda ko‘rib-kechirganlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u kishining xohish-istagi, orzu-talabi, buyurtmasiga muvofiq emas, balki Ollohning iznu irodasi, bandaning qalbi amriga ko‘ra sodir bo‘ladi. “Turgil!” dedilar”, “Bir jum‘a kechasi”da Maxtumquli ma‘lum qilgan holatlarni, agar o‘zida kechmagan bo‘lsa, ya‘ni shunday ilohiy tush ko‘rmagan bo‘lsa, hech bir shoir qalamga ololmaydi. Chunki bunday qilishga uning qurbi-quvvati ham, jur‘ati ham yetmaydi.

Maxtumqulining boshqa shoirlardan farqi va asrlar osha mashhur bo‘lib kelayotganining sababi shundaki, u o‘z she‘rlarida insonni o‘rab turgan, u ko‘rib, seza oladigan tashqi real olam hodisalarini ham, uning ruhiyati, ichki dunyosiga xos hissiyot, kechinmalarni ham tushunarli va ta‘sirchan tarzda ifoda etadi. Ayni xususiyat Maxtumquli she‘rlarining o‘zbekcha o‘girmasi, umuman, turkiy tillardagi tarjimalariga ajoyib tarzda ko‘chib o‘tadi. Bu esa u adabiyotga o‘zidan avvalgi barcha shoirlarnikidan boshqacharoq, o‘ziga xos yangicha she‘riyat taqdim etganini bildiradi. Chinakam asl she‘rni mavjud jozibasi, latofati bilan boshqa tilga tarjima qilib bo‘lmaydi, deyiladi. Bu ish go‘dakning kulgusini, asalning ta‘mini, qo‘shiqning ohangini qo‘l bilan ushlab olishga urinishga o‘xshatiladi. Albatta, sir-sinoat, jumboqlarga to‘la bu hayotning ayni haqiqatini inkor etib bo‘lmaydi. Ammo Maxtumquli she‘rlarining o‘zbek tiliga, umuman, turkiy tillardagi tarjimasi bu haqiqat ham odamlar chiqaradigan barcha xulosa va hukmlar singari mutlaq o‘zgarimas emas, balki nisbiy kuchga ega ekaniga isbot bo‘la oladi. Bu turkman mutafakkiri ijodi yana bir haqiqatdan – asl shoir chinakam faylasuf bo‘lishidan saboq beradi. U Alisher Navoiy (1441 – 1501) yoki Shekspir (1564 – 1616) nafaqat buyuk shoir, balki ulug‘ faylasuf sifatida ham ehtiromga munosib ekanligini esimizga solib qo‘yadi.

Maxtumqulining o‘rtanib, yonib yozgan “Ko‘ring”, “Sindirar” singari o‘nlab hikmatga yo‘g‘rilgan she‘rlari qancha zamon o‘tsa-da, eskirmasligi, ularga hamma narsani yemirib, yaroqsiz qilib qo‘yuvchi, moddiy va ma‘naviy ne‘matlarning shakl-shamoyili, sifatini buzuvchi Vaqt shamollari o‘z hukmini o‘tkazolmasligiga yorqin dalil bo‘la oladi. Chunki “Ko‘ring”da: “Har yigitning aslin bilay desangiz, // Ma‘rakada o‘tirib-turishin ko‘ring. // Birov bilan oshna bo‘lay desangiz, // Avval o‘z so‘zida turishin ko‘ring... // Tangri bezor, biling, zakotsiz boydan, // Siz ham qoching tezda ul kelar joydan, // Mardga bir ish tushsa, ko‘rar Xudoydan, // Nomardning hamrohdan ko‘rishin ko‘ring... // Zolimlar unutar zikri Ollohni, // Arzon olib, qimmat sotar g‘allani. // Sudxo‘r noinsoflar halol tillani // Harom foydasiga berishin ko‘ring. // Mard yigitning

ishi, suhbatini soz bo‘lar, // Ko‘ngli qish bo‘lmayin, doim yoz bo‘lar, // Yaxshining ko‘nglida gina oz bo‘lar, // Yomonning kunda bir urushin ko‘ring” deyilsa, “Sindirar”da: “Iqboling uyg‘onsa, davlat yor bo‘lsa, // Toqqa kesak otsang, toshni sindirar. // Toleing ters kelsa, baxting sho‘r bo‘lsa, // Palovning guruchi tishni sindirar. // Ajalingdan qo‘rqib, kirsang ummonga, // Qo‘rquvdan ne foyda ketajak jonga, // Umring oxir bo‘lib, to‘lsa paymona (paymona – may ichadigan idish, qadah, jom. Paymonasi to‘lmoq – kuni bitmoq, qazosi yetmoq), // Lolaning cho‘pi ham boshni sindirar. // Bor, so‘ziga quloq osgil bilganning, // Oxiri hech yerga yetmas yolg‘onning, // Umri – yoshi ortar olqish olganning, // Qarg‘ish tegmay qolmas, yoshni sindirar. // Maxtumquli, cho‘lda kezgan noshi(y)ni (bilimsiz odam), // Ulug‘ ko‘rma ko‘p surdi deb yoshini, // Tor majlisda to‘liq bersang oshini, // Oshini ey bilmas, kosa sindirar” (Jumaniyoz Sharipov tarjimalari) deyiladi (Maxtumquli. Dunyo o‘tib boradir: She‘rlar. -Toshkent): “Sharq”, 2007. – 240 b. 24 – 27-betlar).

Bunday she‘rlar o‘z-o‘zidan aniqki, Maxtumquli hikmatlarga yo‘g‘rilgan pand-nasihatlar bitish bobida jahon she‘riyati namoyandalarining oldingi safida turadi, deyish uchun to‘la asos bo‘la oladi. Uning: “Har ahmoqqa aytma dardu so‘zingni, // Hasrat o‘ti jisming yoqqancha bo‘lmas. // G‘ussa bilan dona-dona ko‘zingdan // Achchiq yoshlaringni to‘kkancha bo‘lmas. // Qanoatda, izzatda tut o‘zingni, // Ta‘ma qilib, sarg‘aytirma yuzingni, // Har nomardga hayf aylama so‘zingni, // So‘zingning binosin yiqqancha bo‘lmas. // Mag‘rur bo‘lib, kezma umring guliga. // Duch bo‘larsan bir kun xazon eliga, // Yuz yil yashab, tushsang ajal qo‘liga, // Chapingdan o‘ngingga boqqancha bo‘lmas. // Ko‘ngli qora bilan bo‘lmanglar ulfat. // Yuqar undan turli-tuman kasofat, // Ko‘mirga har necha aylasang izzat, // Manglayga qorasi yuqqancha bo‘lmas. // Maxtumquli hargiz topmadi omon, // Yomon tilning zahri tig‘lardan yomon, // Yomon til yonida zahri ko‘p ilon – // Chaqsa-da, bir chivin chaqqancha bo‘lmas” (Jumaniyoz Sharipov tarjimasi) kabi pandu nasihatlar an‘anaviy o‘git, maslahatlardan farqli holda, she‘riyatning jozibasini, falsafaning tarovatini ochadi, hayotning mangu haqiqatlarini anglashga, ularni ong-tafakkur qatlariga, qalbning tub-tubiga joylashtirishga rag‘bat uyg‘otadi (O‘sha manba. 22-bet).

Maxtumqulining ijodiy merosi u taqdirning ko‘p zarbalariga duch kelgani, turmushda ko‘p azob tortgani va qalbida o‘rtanib, yonib she‘r bitish istagi g‘oyatda kuchli bo‘lgani, mutolaaga ishtiyoqi hech so‘nmagani, qiyofa-ko‘rinishi, fe‘l-atvori bir-biriga o‘xshamagan odamlar va ularning ziddiyatlarga to‘la o‘zaro munosabati unga kishilarga pand-nasihat qilish uchun zarur asosga aylangani, o‘tkir savollari, ma‘noli javoblari bilan davralarni qizdirib yurgani, unda odamlar yig‘ilgan joyda umumiy suhbatni qovushtirib turish qobiliyati kuchli bo‘lgani, yuragida toptalgan sevgisi iztiroblari tuzalmas jarohat sifatida chuqur iz qoldirgani, shaxsiyati o‘zi yashagan zamonga, istiqomat qilgan muhitga mos kelmaganidan o‘rtanib, yonib iztirobga tushgani, uning uchun serg‘alva dunyo she‘r yozish uchun muhim bir vosita, bo‘lib qolganidan so‘zlaydi.

Maxtumquli hamma zamonlar uchun ibrat bo‘la oladigan ma‘nan-ruhan barkamol inson bo‘lganiga dalil shuki, u she‘rlarida o‘zi yashayotgan muhit nosozligi, islom dini ahkamlari toptalayotgani, o‘zi ham boshqalar tomonidan ranjitilgani to‘g‘risida ko‘p nolisa-da, lekin yaxshi fazilatli barcha odamlar singari o‘ziga aziyat yetkazgan zolimlarni qarg‘ab, ularga yomonlik tilamaydi. U iztirob, alamlarini: “Dardim bordir diyorumdan, davrimdan, // Xayr qaysi-yu, ehson qaysi, bilinmas. // Zolimlarning jafosidan, jabridan, // Islom qaysi, imon qaysi, bilinmas. // Suhbatlarda Haq kalomin aytar yo‘q, // Majlisida bir nasihat qilar yo‘q. // Halol qaysi, harom qaysi, bilar yo‘q. // Foyda qaysi, ziyon qaysi bilinmas” (“Bilinmas”), “Shohlarda qolmadi hukmi adolat, // Bir pul uchun mufti berar rivoyat. // Bil, bu ishlar nishonai qiyomat, // Zolimlar tavbasiz o‘ta boshladi... // Qozi bo‘lgan bir javobda turmadi, // Tunda zahmat chekib, kitob ko‘rmadi. // Shariat yo‘lida to‘g‘ri yurmadi, // Nafs uchun imonsiz o‘ta boshladi” (“Qocha boshladi”); “Muhammad

ummati molsiz bo‘lmasin, // Molsiz bo‘lsa, qavmu qarindosh yot bo‘lar. // Qochar og‘a-ining, bo‘lmas xotirang, // Dushmanlaring shod-u, do‘sting mot bo‘lar. // G‘arib oyoqyalang, chandir belbog‘dir, // Ma‘rakaga borsa, o‘rni poygakdir. // Faqirlar ot minib, chopsa – eshakdir, // Davlatlilar eshak minsa – ot bo‘lar. // Bir tilak tilasang, keraging bitmas, // Do‘sting ixlos bilan marhamat etmas. // Ma‘rakada aytgan so‘zing joy tutmas, // Tinglamaslar, aytgan so‘zing yot bo‘lar” (“Bo‘lar”) (Jumaniyoz Sharipov tarjimalari) tarzida norozilik bildirish bilan kifoyalanadi (O‘sha manba. 57 – 61-betlar). Bu esa Maxtumquli imon-e‘tiqodi mustahkam, yaxshi xulqli barcha kishilar kabi odamlarda, ular kim ekanligidan qat‘iy nazar, vijdon borligi, u qachon bo‘lsa ham, albatta, uyg‘onishiga hamisha umid qilgani, chin dilidan ishonganidan darak beradi.

Shoir “Turgil!” dedilar”, “Bir jum‘a kechasi”da xayolini band etgan voqealar tushida emas, xuddi o‘ngida sodir bo‘lganday qalamga oladi. Maxtumqulining o‘rtanib, yonib yozgan boshqa she‘rlarida ham dard va quvonchga to‘la ohanglar yuraklarni goh mahzun, goh xushnud etganча junbushga keltirib, osmonga o‘rlaydi. Shoir Mirzo Kenjabek ulug‘ turkman mutafakkiri ijodida barq urib turadigan ana shu xususiyatga asoslanib: “Maxtumqulining butun ma‘rifati, islomiy muhabbati, ishq, shavqi, qayg‘usi she‘rlarida aks etadi. She‘riyati shoir qalbining ko‘zgidir. Maxtumquli she‘riyati bani basharga qilingan otashin va ma‘rifiy xitoblardan iborat” deb ta‘kidlaydigan (Maxtumquli. Saylanma: She‘rlar. Turkmanchadan Mirzo Kenjabek tarjiması. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2004. – 256 b. – 13-bet).

Qalbi odamzod dardi, g‘ami bilan o‘rtanib yongan Maxtumquli she‘rlaridagi otashin nola, xitoblarni ifodalagan so‘zlar ohangi qalbning tub-tubiga kirib borib, kishini beixtiyor mahliyo qilib qo‘yadi. Ulardagi musiqiy jarangdor misralarning ma‘no-mazmuni vujudga titroq soladi. Oqibatda, she‘rxon ham, tinglovchi ham o‘shanda o‘zini boshqa bir dunyoga tushib qolganday, bu she‘rni Maxtumquli emas, xuddi o‘zi yozganday sezadi. Chunki “Sindirar”, “Ko‘ring”, “Bo‘lmas”, “Bo‘ylaringga”, “Ayrildim”, “Nimasan?”, “Yig‘larman”, “Bilmadim” va boshqa she‘rlarda shoirning hazin va sirli ovozi so‘zlarning boshqalarga ochilmagan jumboq tilsimini ochadi. Donishmand shoirning she‘rlaridagi so‘zlarning musiqiy ohangi, teran mazmuni o‘zining holi-ahvolini o‘ylab, iztirobga tushgan yuraklarni o‘rtab, xotiralar qatida yashirinib yotgan kechinma, hissiyotlarni junbushga keltiradi. O‘shanda har bir odam o‘zining sezdirmasdan o‘tib ketgan umri to‘g‘risida o‘ylab, bundan keyingi hayotini tasavvur etolmasdan tashvishga tushadi va bu masalada boshqalar unga hech qanday ko‘mak ko‘rsatolmaydigan, o‘zi ham o‘ziga hech qanday yordam berolmaydigan ojiz banda ekanini ich-ichidan his qiladi. O‘sha paytda maslahat va pand-nasihatlar qanchalik shirin, ma‘noli ekanligidan qat‘iy nazar, malham bo‘lib, taskin-tasalli berish o‘rniga, miyaga, qalbgа bamisoli tig‘ bo‘lib qadalib, kishini ko‘p azobga soladi. Maxtumquli she‘rlarining bunday ta‘sir quvvati ulardagi pand-nasihat, o‘git mazmunidagi hikmatlar kitoblardan o‘qib o‘zlashtirilmagani, ular hayotning aynan o‘zidan, uning bag‘ridan olingani, o‘rtanib, yonib yozilgan bu she‘rlar shu bois odamning qalbiga quyilib, ong-tafakkuriga o‘rnashib olishidan kelib chiqadi.

Bu turkman shoiri chin donishmand ekanligi, u ana shunday ilohiy ne‘mat bilan siylangani bois o‘rtanib, yonib bitgan she‘rlarida qalbni quvvatlantiradigan, ong-tafakkurni kuchaytiradigan ma‘no-mazmun taqdim qiladi. Boshqa shoirlar esa o‘quvchilarga o‘zining his-kechinmalari, hayot hodisalari to‘g‘risida ma‘lumot, xabarni yetkazadi. Maxtumquli she‘rlari o‘zga shoirlarning she‘rlaridan farqli holda, kishini o‘zining holi-ahvoli haqida o‘ylatib, uni o‘ziga o‘zi savol berishga va ularga javob topishga rag‘batlantiradi. O‘zi bilan o‘zi munozara qilgan odam esa oxir-oqibatda, o‘zi uchun ham, boshqalar uchun ham maqbul, to‘g‘ri yo‘lni, albatta, topadi. Turkman donishmandining: “Kel, ko‘nglim, men senga nasihat qilay, // Vatanni tark etib ketuvchi bo‘lma.



// O‘zingdan past bo‘lgan g‘ayir, nomardning // Xizmatida qulluq etuvchi bo‘lma... // Chaqirgan yerga bor, o‘tir-da, turma, // Chaqirmagan yerga borma, o‘tirma. // Uyatsiz odamdek suykanib yurma, // Buyrulmagan ishni etuvchi bo‘lma. // Agar bo‘lsang ipak kabi muloyim, // Muloyim sen bo‘lsang, quling bo‘loyin. // Qulog‘imga bergan panding oloyin, // Kishiga qattiq so‘z aytguvchi bo‘lma” (Jumaniyoz Sharipov tarjimasini) degan o‘git, nasihatlarini avvalo uning o‘ziga qaratiladi (Maxtumquli. Dunyo o‘tib boradi: She‘rlar. – Toshkent: “Sharq”, 2007. – 240 b. – 90 – 91-betlar). Ularning ma‘no-mazmuni turmush qo‘rasida uzoq zamon yonib toblangani, puxta-pishiqlik tajribaga asoslangani bois beixtiyor boshqalar diqqatini ham jalb etadi.

Maxtumquli she‘rlarini “hikmatlarga to‘la ma‘naviy xazina” desa bo‘ladi. Hayotda hamisha asqotadigan, amal qilganlar faqat muvaffaqiyatga erishadigan bu pand-nasihat, o‘gitlar har bir odamning ma‘naviy kamolotga erishishida mustahkam poydevor bo‘la oladi. Bu haqiqat esa minglab, millionlab odamlar qalbidan joy olgan “Bo‘ylaringga”, “Bo‘lmas”, “Ko‘ring”, “Sindirar”, “Ayrildim” singari biri biridan ajoyib she‘rlar muallifi so‘zlari qat-qat ma‘nolarga to‘la muhtaram zot ekanini tasdiqlaydi. “Turgil!” dedilar”, “Bir jum‘a kechasi” va boshqa she‘rlar Maxtumquli o‘zining irqi, diniy e‘tiqodi, millati, tili, qaysi zamon, qanaqa makonda yashashidan qat‘iy nazar, barchaning qalbiga ezgulikka intilish hissini baxsh etadigan she‘rlarini ilohiy ilhom og‘ushida astoydil yuragidan chiqarib ishtiyoq bilan o‘rtanib, yonib yozgani buning sababi u aksariyat shoirlardan farqli holda, avliyo, mutafakkir zot ekanligiga mustahkam va muhtasham dalil bo‘la oladi. Kamdan-kam bandalarga nasib etadigan muborak ne‘mat – tushida payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomni, ul zotning chahoriyorlari va aziz avliyolarini ko‘rganini she‘rga solib ma‘lum qilgani Maxtumquli Ollohning ezgu yo‘lda yurgan jamiki bandalarini o‘zining do‘sti deb bilganidan dalolat beradi. Chunki hadislarida: “Tushini faqat do‘stga yoki nasihatgo‘y oqil insonga aytgin”, “Mo‘minning tushi payg‘ambarlikning qirq oltidan bir qismidir” deyiladi (hidoyat.uz. Kiritildi: 07:45 02.12.2019. O‘qildi: 59526 marta) .

Shunday ekan, tushida Qur‘oni Karim nozil qilingan payg‘ambar alayhissalomni, ul muborak zotning chahoriyorlarini, nomlari insoniyat tarixi sahifalarini bezab turgan aziz avliyolarni ko‘rish va ularning duosini olishga muyassar bo‘lishning darajasi, maqomini belgilashga odamlar qo‘llab kelayotgan o‘lchov, mezonlar ojizlik qiladi. Maxtumqulining islomiy ma‘rifat nurlariga chulg‘angan she‘riyati qancha zamonlardan beri millionlab odamlar qalbidan joy olib, ularga ma‘qul va maqbul bo‘lib kelayotgani u olamning boshqalarga noayon ko‘p sir, jumboqlaridan ogoh bo‘lish baxtiga muyassar qilinib, ana shunday ilohiy holga musharraf etilgan ulug‘ inson ekanligini isbotlaydi.

Tushida payg‘ambar alayhissalomni, ul muborak siymoning chahoriyorlarini, dunyoning boshqalar sezmaydigan, bilmaydigan ko‘p sir-sinoatlaridan xabardor aziz avliyolarini ko‘rganini ma‘lum qilgan shoirni “iqboli behad baland inson” deyish mubolag‘a sanalmaydi. Agar uning bu xususdagi she‘rlariga zarracha yolg‘on so‘z yoki badiiy to‘qima aralashganida edi, hech shubhasiz, shoir tanqid toshlari ostida qolib, nomi izsiz o‘chib ketardi. Chunki bunday soxta, yasama da‘vo bilan chiqqanlar, albatta, Yaratguvchining qahriga uchraydi. El-xalq esa bu xildagi shuhratparastlarni qarg‘ab, tosh bo‘ron qilib tashlaydi. “Turgil!” dedilar”, “Bir jum‘a kechasi” bitilgan musulmonobod zamonlarda hech kim Maxtumquliga tushimda payg‘ambar alayhissalom, chahoriyorlar, aziz avliyolarni ko‘rib, ularning duosini oldim, degani uchun e‘tiroz etolmagani singari keyingi asrlarda ham bu borada muhtaram shoirni tanqid qilishga hech kim bunga jur‘at qilmadi. Aniqrog‘i, bunga hech kimning qurbi yetmadi. “Axborot bo‘roni” ichida qolgan hozirgi paytda ham hech bir shuhratparast bu ulug‘ shoirni badnom qilishga botinolmaydi. Vaholanki odamlar barchaga tanilish, hammani o‘ziga qaratish, e‘tibor qozonish uchun muqaddas kitoblarni

yoqmoqda, masjidlar, ibodatxonalarni portlatmoqda. Kishilar nom chiqarish, nomini qoldirish uchun azal-azaldan pastkashlik, tubanlikning har qanday turiga qo‘l uradi. Insoniyatning uzoq o‘tmishi, yaqin tarixi ham, bugungi kun voqealari ham buni to‘la tasdiqlaydi. Lekin hech kim “Turgil!” dedilar”, “Bir jum‘a kechasi” uchun Maxtumqulining yoqasiga yopishmaydi, uni ayblab, malomat etib, maydonga chiqmaydi. Aksincha barcha ushbu she‘rlarni hech bir e‘tirozsiz qabul qiladi, iqboli baland Maxtumquliga samimiy havas bilan qaraydi.

Albatta, sho‘ro zamonida mumtoz adabiyotning hamma namoyandalari singari Maxtumqulini ham ateist sifatida ko‘rsatishga, uning islom diniga e‘tiqodi, muhabbatini yashirishga, ijodining ushbu jihatini odamlardan pinhon saqlashga, she‘rlarini kommunistlar mafkurasiga moslab, tahrir qilishga zo‘r berib urinildi. Mutafakkirning umuminsoniy qadriyatlarga, hayotbaxsh ma‘rifatga yo‘g‘rilgan o‘git, pand-nasihatlari islom diniga asoslangani aslo aytilmadi. Bu ochiq, yorqin haqiqatdan ko‘z yumish esa ulug‘ shoir she‘riyatiga ko‘p zaxmat yetkazsa-da, uni butkul jo‘nlashtirolmadi, nursizlantirolmadi. Chunki ilohiy tushini she‘rga solgan iqboli baland bu inson: “Sahar tur, Xudoga yolvor, // Islom uying obod qolsin. // Yomonni qo‘y, yaxshilik qil, // Shayton ishi barbod qolsin. // Yaxshi so‘zga quloq solgin, // Sahar vaqti bedor bo‘lgin. // Yaxshilardan olqish olgin, // Umring ortsin, ziyod qolsin” (Muzaffar Ahmad tarjimasini) deb yashab ijod etgan edi (Maxtumquli. Dunyo o‘tib boradir: She‘rlar. – Toshkent: “Sharq”, 2007. – 240 b. – 147-bet). Uning bunday o‘tli nolalari, ezgu murojaatlari, hikmatomuz nasihatlarida serg‘alva dunyoning o‘zgarish, taloto‘plari ta‘sir ko‘rsatolmaydigan, abadiyatga daxldor haqiqatlar mujassam edi.

Maxtumqulining ma‘rifat nuri charaqlagan, o‘rtanib, yonib yozgan she‘rlari barcha zamonlardagi hamma odamlarga otashin murojaat kabi yangraydi. Yuqorida iqtibos olingan “Yaxshi ot qolsin” bunga bir misol bo‘lsa, “Fosh etar seni”, “Muhtoj aylama”, “Qish bo‘lar”, “Elni ko‘zlar”, “Ayrilma”, “Bandaning” va boshqa she‘rlar ham bunga aniq bir tasdiqdir. Chunki “Fosh etar seni”da: “Ichki siring aytma har bir nomardga, // Siring elga yoyib, fosh etar seni. // O‘g‘rikazzob bilan hamqishloq bo‘lma, // Molingdan ayirib, och etar seni. // Ezma odam bilan o‘tirmaturma, // Zinhor nomard bilan hamsuhbat bo‘lma. // Qadrdon do‘stingdan yuzing o‘girma, // Borsang, boshi uzra toj etar seni... // So‘filar yanglishib aytmas sanoni, // Sahar tursang, Xudo kechar gunohni. // Aytma hech g‘iybatni, qilma zinoni, // Do‘zaxning o‘tiga duch etar seni” (Muzaffar Ahmad tarjimasini) deyiladi (O‘sha manba. – 146-bet).

Maxtumqulining o‘tli murojaat, samimiy da‘vatlarni bag‘riga jo qilgan she‘rlari odamlarga insonlik mohiyatidan saboq bergani bois asrlar osha qadrlab kelinadi. Mutafakkir o‘z she‘rlarida insonning ma‘naviy kamoloti, ruhiy yuksalishiga to‘sqinlik qiladigan takabburlik, ochko‘zlik, shuhratparastlik, shafqatsizlik, zolimlik, zo‘ravonlik, manmanlik, xudbinlik, mutaassiblik singari illatlarni ta‘sirchan tarzda asoslab, yonib, o‘rtanib, mazammat qiladi.

Maxtumquli she‘rlaridagi hikmatlarga chulg‘angan, pand-nasihat, o‘gitga to‘la murojaatlarida zamona ziddiyatlari, odamlar fe‘l-atvori murakkabliklarining tag zamirini ochib beradi, inson hayoti ma‘no-mazmunining jumboq jihatlariga e‘tibor qaratadi. Uning odamzod turmushidagi norasoliklarga qo‘ygan “tashxis”lari g‘oyat aniqligi va nihoyatda ta‘sirchanligi bilan barcha zamonda odamlarni hayratga soladi. Maxtumquli boshqa shoirlar singari so‘zlariga jilo berib, misralariga turli badiiy san‘atlardan libos kiydirib, gapni olib qochmaydi. U har bir she‘rida fikrini tiniq, tushunarli tarzda ifodalab, xulosasini juda ta‘sirchan etib, taqdim qiladi. Mutafakkir hech bir she‘rida xayol-tasavvuri kengliklarini ko‘z-ko‘z etib, fantaziyaga berilmaydi. Donishmand shoir har bir she‘rida g‘alva, mojarolarga, talashish-tortishishlarga hamisha to‘la turmushning aynan o‘ziga murojaat qilib, odamlarga insonlik mohiyatidan saboq beradi. “Turgil!”

dedilar”, “Bir jum’a kechasi”da tushini qalamga olganida ham voqelikni kishi ishonmaydigan, asossiz oldi-qochdilar bilan to’ldirmaydi, bo’yab-bejab ko’pirtirmaydi. Insonlik mohiyatidan saboq berguvchi bu mutafakkir voqelikni “Turgil!” dedilar” da yuqorida keltirilgan tarzda ma’lum qilsa, “Bir jum’a kechasi”da tushini: “Ul qaro bog’ ichra ko’rdim bir chaman, // Ajoyib majliski, ko’rdim – anjuman. // Davra kirib ko’rdim: o’ltirmish chiltan (qirq tan, dunyo vujudlarida qoim bo’lgan qirq avliyo), // Salom berib, qo’lin quchdim yoronlar...” deb bayon etadi va she’rni: “Maxtumquli, hushyor bo’ldim, uyg’ondim, // Uyg’ondim, o’rtandim, tutashdim, yondim, // Ma’no bozorinda hayotga do’ndim, // Shirin g’azal to’nin bichdim yoronlar” (Mirzo Kenjabek tarjimai) shaklida tugallaydi. Shoir “Turgil!” dedilar”da ham, boshqa she’rlarida ham voqelikni, unda ishtirok etayotganlarning holat, kayfiyat, harakatini xuddi ko’rib turganday qalamga oladi. She’rxon ham Maxtumqulining holi-ahvolini ko’z oldiga keltirib, o’zicha tasavvur qiladi.

“Dunyo o’tib boradur” to’plamini, ulug’ donishmandning shoir Mirzo Kenjabek tarjima qilgan “Saylanma”sini mutolaa qilgan kishi undagi she’rlar markazida muallifning o’zi, uning Odam va Olam dardi bilan azoblangan shoirona qalbi turganini, albatta, aniq his qiladi. Chunki bu she’rlarda zamonasi nosozliklari, odamlar fe’l-atvori, o’zaro munosabati rasvoligidan qalbi o’rtanib, yongan ma’rifatparvar Maxtumqulining muhtasham zakovati, uning bebaho aql-tafakkurining shukuhi ufurib turadi. Masalan, u “Kechdi zamona” she’rida: “Ey og’alar, yig’larman, keldi-kechdi zamona, // Yaxshi qadri bilinmay, do’ndi (aylandi) davr yomona. // Yomon oldi jahonni, kelmas tili imona, // Ko’p faqirlar yig’lashib, tilar undan omona, // Istagi bor, tez vaqtda barham topsa zamona... // Davron qanday davronsan, g’arib yig’lar, el tinmas, // Zolimning zulmi ortar, ko’ngliga rahm inmas. // Jahonni yoqdi-ketdi, yomonning o’ti so’nmas. // Muhammad hurmatiga er yorilmas, ko’k enmas, // Charx bu ishga quvonar, bo’lmas oxir zamona” (Jumaniyoz Sharipov tarjimai) deb faryod uradi (Maxtumquli. Dunyo o’tib boradir: She’rlar. – Toshkent: “Sharq”, 2007. – 240 b. – 71-bet). She’rxon ulug’ shoirning bu kabi nolalarini eshitganida uning o’rtanib yonishlari bejiz emasligi, zolimlar hozir ham zo’ravonlik qilishdan tiyilmagani, yomonlar yoqqan olovlar hanuz gurillab turgani, ular ayni zamonda ham jahonni alg’ov-dalg’ov etib, ne-ne obod manzillarni vayron qilayotganini xayolidan o’tkazadi.

Maxtumquli she’riyati butun borlig’i, mohiyatiga ko’ra Qur’oni Karim oyatlari, payg’ambar alayhissalom hadislariga asoslangani, ana shu haqiqatdan kelib chiqilsa, uning o’zi biror bir yangi bir gap aytmagani ayon bo’ladi. Shoir turli mavzudagi katta-kichik barcha she’rlarida hammaga ma’lum mangu haqiqatlarni bayon qilganini she’rxon bilib, sezib turadi. Masalan: “Maxtumquli, jon mehmondur, tana – losh (o’limtik), // Yaxshiga do’st ko’pu, yomon beqardosh” (“Bilinmas”); “Oqsoq kiyik yuz bo’rsiqqa (suvsarsimonlar oilasiga mansub yirtqich kalamushsimon hayvon) yetkizmas, // Sher bolasi ming tulkiga tutqizmas. // O’lik ilon ming kelpozga (kaltakesak) yutqizmas, // Aql kerak bu ishlarga yetmoqqa” (“Oy kuningiz botmoqqa”); “Bir taom yemakka tishlar qolmas, // So’ziga o’g’il-qiz qulog’in solmas. // Uzoqdan ko’zlasa, ko’zlari ko’rmas”, // Dard yomoni qarilikdir, yoronlar” (“Qarilikdir, yoronlar”) (Jumaniyoz Sharipov tarjimalari) degan. Ammo bu gaplar avval ham ko’p bor aytilgan bo’lsa-da, ammo ular aslo takror, qaytariq emas. Ular buyuk ma’rifatparvar shoirning alam, iztirobga to’la kechinmasi, nolasi, dil faryodi bo’lib yangraydi. Shoirning ana shu nolasi, faryodi boshqalarning, ular qaysi zamonda, qanaqa makonda yashashidan qat’iy nazar, ko’ngil kechinmasi, undagi ichki iztirobga juda-juda mos, muvofiq keladi. Bu haqiqatni esa, har qancha uringanida ham hech kim inkor etolmaydi. Maxtumquli hech bir she’rida: “Men hech kim bilmaydigan yangi gapni aytaman, hech kim xabar topmagan yangilikni ma’lum qilaman” deb da’vo qilmagan. U hech bir o’rinda donishmand ekanini ko’z-ko’z etib, aql-zakovati, zukkologini namoyish qilish uchun maydonga

chiqmagani, shuhratparastlik hirsiga berilib, jar solmagan. U o‘zining ahvolini: “Bulbulman, ohu zor chekib, // Toza gulzordan ayrildim. // Ko‘zdan qonli yoshim to‘kib, // Ul sevar yordan ayrildim” (“Ayrildim”); “Yigitlikning zo‘ri ketdi belimdan, // Dard yomoni qarilikdir, yoronlar! // Iloji yo‘q uning boshqa o‘limdan, // Dard yomoni qarilikdir, yoronlar!” (“Qarilikdir, yoronlar”); “Dardim bordir diyorumdan, davrimdan, // Xayr qaysi-yu, ehson qaysi bilinmas. // Zolimlarning jafosidan, jabridan, // Islom qaysi, imon qaysi bilinmas” (“Bilinmas”) (Jumaniyoz Sharipov tarjimalari) tarzida nola chekib, xokisorlik, kamsuqumlik, kamtarlik bilan ma‘lum etgan.

Maxtumquli sevgi-muhabbat mavzusidagi she‘rlarida bu sir-sinoatga to‘la maftunkor hissiyot kishiga baxsh etadigan zavq, shavq, hayajonni, uning hijroni yetkazadigan azobu iztirobni yurak-yuragidan his etib ifodalaydi. Mutafakkirning ayni she‘rlari qalbning qatida yashirib yotgan xotiralarni junbushga keltirib, yurakni o‘rtab yuboradi. O‘shanda har bir odam sevgi-muhabbatning munavvar og‘ushida kechgan chog‘larini eslab, keyingi hayotini tasavvur etganicha o‘ychan, mahzun bo‘lib qoladi, inson hayoti azobu mashaqqatlarga to‘la sinov maydoni ekani, kishining taqdiri esa doim kutilmagan tasodifu, adoqsiz chalkashliklar bilan kechishidan hayratga tushadi va doim o‘zgaruvchan, serg‘alva bu dunyoda yashash hech kim uchun hech qachon oson kechmasligini anglab yetadi. Chunki bu benazir shoirning she‘rlaridagi: “Yursang, yorim, quvonaman // Sarv qomat bo‘ylaringga. // Guldan libos yarashibdir // Sog‘-salomat bo‘ylaringga. // Men – bulbulga aylab ozor, // Shirin jonim olding – nisor. // Zulayxodan qolgan zunnor // Bo‘lsin hojat bo‘ylaringga. // Ko‘rsam husning – yo‘q armonim, // Sensiz xazon bo‘lsin jonim. // Iqbolim, dini-imonim – // Qilsam hurmat bo‘ylaringga” (“Bo‘ylaringga”) (Jumaniyoz Sharipov tarjimasini) kabi haroratli satrlar sevgi-muhabbat hissi mavj urgan yuraklarning shodligi, quvonchi hayajonining izhori bo‘lib jaranglaydi.

Shoir “Turgil!..”da tun yarmida tushiga Payg‘ambar alayhissalom ko‘rinib, chahoryorlar, aziz avliyolarga: “Bu qulning maqsudin bergil!” deb buyurgani, “Ota-o‘g‘il dardlashuvi” she‘rida esa otasi Ozodiy: “Oshkor et siringni, saqlama pinhon” deganida, u o‘z holini: “Ko‘ngil qushi parvoz urar faqirning... // Ko‘ngil qushi talvos urar yiroqdan” deb ma‘lum etganini qayd qiladi. Boshqa she‘rlaridan ham Maxtumqulining hayotdagi asosiy maqsadi odamlarga qalblarni o‘rtovchi pand-nasihati aytish bo‘lgani, bu holat uning diliga ilohiy istak sifatida solib qo‘yilgani, o‘rtanib, yonib she‘rlar yozishi, so‘zlari nurday yorqin, olovday haroratli ekanining boisi shunda ekani ayonlashadi. Bu ulug‘ shoir nafaqat ilohiy ishqni sharaflagan she‘rlarini, balki insoniy sevgi-muhabbat mavzuidagi she‘rlarini ham iztirobga to‘lib, hasratlarini ko‘zyoshi, dil dardiga qorib yozadi. Uning o‘rtanib, yonib aytgan so‘zlari shu bois necha zamonlardan beri beixtiyor ko‘ngillarga ko‘chib o‘tib, kishilarga zavq-shavq ulashadi, beg‘am, beparvo odamlarni sergak torttirib, dardmand qilib qo‘yadi. Chunki shoir o‘zida nurni va sirni yashirgan mahjubani: “Ko‘rgan kishi fido bo‘lar, // El-yurtidan judo bo‘lar. // Maxtumquli gado bo‘lar, // U karomat bo‘ylaringga” deb madh etadi (“Bo‘ylaringga”. Jumaniyoz Sharipov tarjimasini). “Ayrildim, g‘uncha gulimdan, // Qora sochi sunbulimdan. // Xush ovozli bulbulimdan, // Shirin guftorimdan ayrildim. // Telba ko‘nglimning armoni, // Barcha go‘zallarning xoni. // Sakkiz jannatning bo‘stoni... // Maxtumquli oshiq-maston, // Bag‘ishlab sha‘niga doston. // Manzilgohi bog‘u bo‘ston, // Olma-anordan ayrildim” deb nola qiladi (“Ayrildim”. Jumaniyoz Sharipov tarjimasini). Turmushda ko‘p kuzatiladigan holatga: “Haq har kimga yaxshi yor bermagandir, // So‘zi achchiq, ichi to‘la armondir. // Yuz yil yashab, besh kun umr ko‘rmagandir, // Har kimning munosib yori bo‘lmasa” deb tavsif beradi (“Xaridori bo‘lmasa”. Jumaniyoz Sharipov tarjimasini). Shoirning “Namasan?” idagi: “Asli seni ko‘rmaganman, dildorim! // Qumrimisan, bulbulmisan, namasan? // G‘amgin dilni xayolingda aldarman, // Bog‘ ichinda gul-gulmisan, namasan?.. // Yo mushkmisan

yoki jambil, yo anbar? // Aytolmayman: yo charxmisan, yo chamber? // Daryomisan, yo mavjmisan, yo safsar? // Girdobmisan, to‘lqinmisan, namasan? // Oltinmisan, kumushmisan, zarmisan? // Yo Arshmisan, Kursimisan, ermisan? // Yo yoqutmi, yo marjon, durmisan? // Yo chirog‘mi, yo ziyosan, namasan?” singari savollar qalbga shirin hislar olib kirganidan har qanday kishining yuz-ko‘zida shirin tabassum paydo bo‘lib, uning butun vujudi ajib mastona halovatga chulg‘anadi (“Namasan?” Jumaniyoz Sharipov tarjimasini). Maxtumqulining bu kabi marg‘ub – ijobiy va nomarg‘ub – salbiy mazmundagi savollari inson hayotida javobsiz qoladigan savollar, yechib bo‘lmaydigan jumboq, sirlar g‘oyat ko‘pligini esga solib, o‘ylatib qo‘yadi.

“Dunyo o‘tib boradur”, “Saylanma”dagi ilohiy ishq mavzusidagi, ijtimoiy turmush norasolliklari to‘g‘risidagi she‘rlar Maxtumquli qalami bilan shoir yashagan zamonga chin ma‘rifat kirib kelganidan xabar bersa, “Bo‘ylaringga”, “Ayrildim”, “Namasan?” kabi ko‘plab she‘rlar odamlarga so‘z aytish istagida o‘rtanib yongan bu shoir timsolida adabiyotda insoniy muhabbat mavzusi yanada mustahkamlangani, teranlashganini tasdiqlaydi. U hammaga birday oson tushunarli barcha she‘rlarida zamondoshlari va kelgusi avlodlarga, ular irqi, dini, manzil-makoni, ijtimoiy ahvolidan qat‘iy nazar, islomi ma‘rifatga asoslangan pand-nasihat, o‘gitlarni eshitsin, anglasin va ularga amal qilsin, deb o‘rtanib, yonib xitob qilganini zukko o‘quvchilar, albatta, sezadi. Shoirning bu o‘tli murojaatlari adolatning abjag‘i chiqqan hamma zamonlarning faryodi bo‘lib eshitiladi. Maxtumquli she‘riyatidagi o‘tli, olovli o‘git, pand-nasihatlar barokati, o‘rtanib, yonib yashagan shoirning islom dinini ulug‘lashi sharofatidan insoniyat qanchalik bahra olganini esa eng zamonaviy komyuter uskunalari ham hisob-kitob qilib, o‘lchab ko‘rsatolmaydi.

Mazmun-mohiyati hech bir zamonda eskirmaydigan, qadri, ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan o‘git, pand-nasihat, o‘tli, olovli xitob Maxtumquli she‘riyatini ma‘no markazini tashkil etadi. Shoir aksariyat she‘rlarini iztirobga to‘lib, pand-nasihat qilish bilan boshlab, o‘tkir o‘git aytish bilan tugallaydi. Masalan, “Ketib boradir” she‘rining dastlabki bandida: “Moldunyoga hirs qo‘ymang, ey yoronlar, // Kimga kelib, kimdan ketib boradir. // Iskandar misoli davron surganlar, // Navbat bilan bir-bir o‘tib boradir” (Jumaniyoz Sharipov tarjimasini) deb murojaat qilsa, “Qish bo‘lar”ni: “Tinglang, nasihatim shudir, yigitlar, // Yomon xotin yaxshi erga qish bo‘lar. // Mudom “oh” chekarsan, zehning kund (o‘tmas) etar, // Kunduzgi xayoling tunda tush bo‘lar” degan xitob bilan boshlaydi va she‘rni: “Maxtumquli aytar: So‘zim olamdir, // Nasihatim ulug‘ elga alamdir (nishona, belgi, bayroq). // Olg‘ir shunqor, lochin ovda ma‘lumdir, // Qarg‘a, hakka, nari borsa, qush bo‘lar” (Muzaffar Ahmad tarjimasini) degan xulosa bilan tamomlaydi. Shoir she‘rlaridagi bunday salmoqdor xulosalarda ularda bayon qilingan fikr-mulohazalarning mazmuni mag‘zi mujassamlashadi.

O‘zbek shoirlari tarjima qilgan “Dunyo o‘tib boradur”, “Saylanma”ga jamlangan she‘rlar Maxtumqulining hayotdagi eng oliy maqsadi, yuqorida ta‘kidlanganidek, odamlarga manfaati tegadigan, ularning ong-shuurini nurlantiradigan, ularni ezgu amallarga yo‘llaydigan ta‘sirchan o‘git, pand-nasihat aytish bo‘lganini oydinlashtiradi. Shoirning har bir she‘ri, mavzusidan, e‘tibor qaratilgan muammosidan qat‘i nazar, bunga aniq isbot bo‘la oladi. Ular o‘rtanib, yonib yashagan bu mo‘tabar inson qalbini, ong-tafakkurini ana shunday tiyiqsiz ilohiy istak qamrab olgani, bu hatto, uning uchun nafas olishdek bir holga aylangani bois mukammallikning oliy ko‘rinishi – barcha birdek oson tushunadigan, mutolaa qilgan, tinglagan har qanday odam beixtiyor maftun, mahliyo bo‘lib qoladigan oddiy, sodda she‘rlar ijod qilganidan dalolat beradi. Bunga yana bir mustahkam mantiqiy asos shuki, bu turkman mutafakkiri ijodiy merosida ilohiy islom dini g‘oyalari barcha dinlardagi insonparvarlik, ezgulikni ulug‘lagan ma‘rifat bilan uyg‘unlashib, jamuljam bo‘lib ketadi. Shoir she‘rlari ana shunday muhtasham, metindek mustahkam poydevorda

turgani bois har bir kishida o‘zining holi, ahvolini bilish, botinini ko‘rish istagini uyg‘otadi. Ularni o‘zining kimligi, insonlik darajasi ne qadar ekanini idrok etmoqqa undaydi. Chunki Maxtumquli o‘zining ahvolidan so‘z ochib: “Ey yoronlar, umrimdan // Kechdi deb yig‘larman. // Ketdi aqlim, o‘rnidan // Shoshdi deb yig‘larman. // Ketgan qaytmas yo‘lidan, // Qolmas yomon fe‘lidan, // Diyonat xalq dilidan // Uchdi deb yig‘larman. // Hozir bizning zamonda // Yomon so‘zlar zabonda. // Zulm ishlari jahonda // Jo‘shdi deb yig‘larman” (Jumaniyoz Sharipov tarjimasini) deb o‘rtanib yonadi. Topish, erishish, muyassar bo‘lishdan ko‘ra, yo‘qotish, ayrilish, ajrashish, yutqizish, boy berish ko‘p ro‘yi zaminidagi bu hayot sinovlari, uning kutilmagan zarbalari, to‘siqlari esa, istasin-istamasin, xohlasin-xohlamasin, hamma odamni yig‘latadi. Ko‘p odamlar o‘zining bu holini ochiq-oshkora ko‘rsatadi, ayrimlar esa tabiatan mahdud ekanligidan “odamlar oldida obro‘sizlanib qolmayin” degan tahluka ichida ko‘zidan yosh chiqarmaydi. Chunki xalq “ichimdan top kimsalar” deb ta‘riflaydigan bu toifadagi odamlar izzatalab, shuhratparast bo‘lgani uchun beobro‘ bo‘lib qolishidan xavfsirab, doimiy tahluka, xavotir iskanjasida yuradi.

Maxtumqulining hammaga hamisha naf keltiradigan o‘git, pand-nasihatlarini bag‘riga jo etgan she‘riyati insoniyat hayotiga teran ma‘no-mazmun baxsh etadigan ma‘rifatni hamisha nurlantirib turadi. Chunki bu shoir har qanday qalamkash havas qiladigan, hech bir ijodkor erisholmagan darajada o‘rtanib, yonib: “Qodir Jabbor, sendan tilagim ko‘pdir, // Sen meni nomardga muhtoj aylama. // Xazinangdan bergin mening rizqimni, // Bandangni bandangga muhtoj aylama. // Ozdirmagin to‘g‘ri yo‘ldan egriga, // Egrini teng qilma hargiz to‘g‘riga, // O‘zga moli nasib qilmas o‘g‘riga, // Halolni haromga muhtoj aylama... // Sendan yaxshi niyat, tilagim ko‘pdir, // Achchiq so‘zlar tildan chiqqan bir o‘qdir, // Akaning, ukaning bahosi yo‘qdir, // Og‘ani iniga muhtoj aylama. // Maxtumquli, Haqdan tila boringni, // Tilar bo‘lsang, tila o‘z imoningni, // Obod ayla ikki ko‘zing nurini, // Sog‘ ko‘zim so‘l ko‘zga muhtoj aylama” (Muzaffar Ahmad tarjimasini) deb Ollohga iltijo qiladi. Ulug‘ mutafakkirning ana shunday o‘rtanib, yonib yozgan boshqa she‘rlaridan ham bashariyatga azaldan hamroh bo‘lib kelayotgan hasrat ovozi eshitiladi.

Maxtumqulining o‘zidan avvalgi zamonlardagi va keyingi davrlardagi shoirlardan alohida farqli yana bir muhim jihati shundaki, uning talaygina she‘rlari matni savol-javobga asoslanadi. Shoir aksariyat she‘rlarida ritorik so‘roqlar qo‘yib, murojaat, xitob qiladi. Bu so‘roqlar, savol-javoblar o‘quvchini diqqatini jamlashga, shoirning so‘ziga e‘tibor qaratishga majbur qiladi. Ular she‘rdagi mazmunni bo‘rttirish barobarida, misralardagi so‘zlarni bir-biridan alohida ajratib, urg‘ulab ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan iqtiboslar Maxtumquli o‘rtanib, yonib so‘z aytganini namoyish qilish barobarida, bu ulug‘ shoir she‘riyatining g‘alvalarga to‘la zamonlar osha yashab kelishi sabablari to‘g‘risida o‘ylatib qo‘yadi. Bu xususda mulohaza yuritgan kishi, birinchi navbatda, shoirning she‘rlari g‘oyat ta‘sirchan ekanligini xayolidan o‘tkazadi. Ikkinchidan, hech shubhasiz, ular barchaga birday tushunarli ekanligiga, albatta, diqqat qiladi. Mutafakkir shoir she‘rlarining Jumaniyoz Sharipov, Jumaniyoz Jabborov, Mirzo Kenjabek, Muzaffar Ahmad, Ergash Ochil va boshqalar o‘g‘irgan tarjimalaridagi ta‘sirchanlik asliyatdagi soddalik va oddiylikka asoslanadi. Maxtumquli bilan Durdi shoir o‘rtasidagi savol-javob (Jumaniyoz Sharipov tarjimasini) ham, “Ozodiy bilan aytishuv”, “Ota-o‘g‘il dardlashuvi”, “Durdi shoir bilan Maxtumquli aytishuvi”, “Maxtumquli bilan Zunubiy aytishuvi”, “Kel, Ma‘rufiy, javob ber” yoki “Yig‘larman”, “Yomg‘ir yog‘dir, sultonim” (Mirzo Kenjabek tarjimalari) ham, “Namasan?”, “Bo‘ylaringga”, “Ko‘ring” (Jumaniyoz Sharipov tarjimalari) ham juda oddiy, soddalik, tushunarli va g‘oyat ta‘sirchan bo‘lib, ular barcha zamonlar uchun she‘riyatning mumtoz namunasi sifatida xizmat qiladi. Bu haqiqatni hech kim inkor etolmaydi.

Alisher Navoiyning jahon adabiyoti durdonalari qatoridan mustahkam o‘rin olgan “Xamsa”sining cho‘qqisi “Farhod va Shirin” dostoni sanalsa, ushbu muhtasham asarning eng avj pardasi, shubhasiz, shoh Xusrav va oshiq Farhod munozarasi “sahna”si hisoblanadi. Chunki dostonning ayni shu o‘rnida asar asosiy qahramonlarining asl insoniy qiyofasi, ularning ma’naviy-ma’rifiy, ruhoniy darajasi ko‘rinadi. Dostonning xuddi shu joyida hukmdor Xusrav nafs va hirs bandasi, qalbiga ishq dardi kirgan Farhod esa ma’naviy barkamol inson timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

“Dedi: Qaydinsen, ey majnuni gumrah? // Dedi: Majnun vatandin qayda ogah. // Dedi: Nedur sanga olamda pesha? // Dedi: Ishq ichra majnunluq hamesha. // Dedi: Bu ishdin o‘lmas kasb ro‘zi, // Dedi: Kasb o‘lsa basdur, ishq so‘zi. // Dedikim: Ishq o‘tidin de fasona! // Dedi: Kuymay kishi tormas nishona. // Dedikim: Kuymagingni ayla ma‘lum! // Dedi: Andin erur joh ahli mahrum! // Dedi: Qay chog‘din o‘ldung ishq aro mast? // Dedi: Ruh ermas erdi tang‘a payvast. // Dedi: Bu ishqdin inkor qilg‘il! // Dedi: Bu so‘zdin istig‘for qilg‘il! // Dedi: Oshiqqa ne ish ko‘p qilur zo‘r? // Dedi: Furqat kuni ishq balosho‘r. // Dedi: Ishq ahlining nedur hayoti? // Dedi: Vasl ichra jonon iltifoti. // Dedikim: Dilbaringning de sifotin! // Dedi: Til g‘ayratidin tutmon otin! // Dedikim: Ishqig‘a ko‘nglung o‘rundur? // Dedi: Ko‘nglumda jondek yoshurundur. // Dedi: Vaslig‘a borsen orzumand? // Dedi: Bormen xayoli birla xursand. // Dedi: No‘shi labidin topqay el bahr? // Dedi: Ul no‘shdin el qismidur zahr. // Dedi: Joningni olsa la‘li yodi? // Dedikim: Ushbudur jonim murodi. // Dedi: Ko‘ksungni gar chok etsa bebok? // Dedi: Ko‘nglum tutay ham ayla deb chok! // Dedi: Ko‘nglung fido qilsa jafosi? // Dedi: Jonimni ham aylay fidosi. // Dedikim: Ishqdin yo‘q juz ziyonbud! // Dedi: Bu keldi savdo ahlig‘a sud. // Dedi: Bu ishq tarki yaxshiroqdur! // Dedi: Bu sheva oshiqdin yiroqdur! // Dedi: Ol ganju qo‘y mehrin nihoni! // Dedi: Tufroqqa bermon kimyoni! // Dedi: Joningg‘a hijron kinakashdur. // Dedi: Chun bor vasl ummidi xushdur. // Dedikim: Shahg‘a bo‘lma shirkatandesh! // Dedi: Ishq ichra tengdur shohu darvesh! // Dedi: Joningg‘a bu ishdin alam bor! // Dedi: Ishq ichra jondin kimga g‘am bor? // Dedi: Kishvar beray, kech bu havasdin! // Dedi: Bechora, kech bu multamasdin! // Dedi: Ishq ichra qatling hukm etkim! // Dedi: Ishqida maqsudumg‘a etkim. // Dedi: Bu ishda yo‘q sendin yiroq qatl! // Dedi: Bu so‘zlaringdin yaxshiroq qatl //”.

Maxtumquli she‘rlaridagi savol-javoblar Alisher Navoiy asarlaridagidan farqli holda, bahs-munozaraga emas, islom dini ma‘rifati, uning hayotbaxsh g‘oyalarini targ‘ib etish, turmush haqiqatini ma‘lum qilishga qaratiladi. Xusravning savollarida ma‘rifatdan bebahra takabbur hukmdorlarga xos tahdid, zo‘ravonlik, manmanlik ohangi ustunlik qiladi. U Farhodga bepisandlik bilan qarab, uni tergovchi, qozi sifatida so‘roq qiladi. Xusrav Farhodni juda jiddiy ayb ish qilgan jinoyatchi, deb biladi. O‘quvchi “Farhod va Shirin”ning ushbu sahifalarini ichki bir tahlila, xavotir, hadik, katta qo‘rquv bilan o‘qiydi. U zo‘ravon Xusrav Shiringa oshiq bo‘lib, yolg‘iz o‘zi arman o‘lkasiga kelgan Farhodning ustidan qanday hukm chiqarar ekan, Chin mamlakati sultoni o‘g‘lining javoblari Shirinning yurtiga lashkar tortib kelgan hukmdorga qanday ta‘sir ko‘rsatar ekan, deb diqqat bo‘ladi. Maxtumqulining “Namasan?” va boshqa she‘rlaridagi savollar, uning o‘z otasi Ozodiy, Durdi shoir, Zunubiy bilan aytishuvlari, “Ota-o‘g‘il dardlashuvi”, “Kel, Ma‘rufiy, javob ber”i esa kishini ich-ichidan hayajonga solib, entiktirib, zavq beradi. Chunki ular islom dini tarixi, uning mazmun-mohiyati, kundalik turmush hodisalari to‘g‘risida muhim va qiziqarli ma‘lumotlarni taqdim qiladi.

Hayotning kutilmagan zarbalariga ko‘p duch kelib, turmushning og‘ir sinovlari, achchiq ayriliqlarini boshidan kechirgani bois o‘ziga Firog‘iy taxallusini tanlagan Maxtumqulining aytishuv, savol-javob tarzidagi she‘rlari o‘zining topishmoqsifat shakli bilan diqqatni darhol jalb

etadi. Masalan, Maxtumqulining Durdi shoir bilan savol-javobini mutolaa qilayotgan, tinglayotganlar beixtiyor butun e'tiborini jam etib, savollarga qanday javob qaytarilishini hayajon bilan kutib, o'zicha turlicha taxminlar qiladi. O'shanda o'rtaq birdan jimlik cho'kib, pashsha uchsa eshitilgudek sokinlik yuzaga keladi. Ayni g'aroyib, noyob holatdan kishilarning yuz-ko'zida samimiy, mayin, muloyim, mamnunlik hissi paydo bo'ladi. Bu yoqimli hisning ta'siri, quvvati nigohlarda jilvalanib yonadi. Sharq she'riyatidagi aytishuv, savol-javob, munozaralarning mumtoz namunasi Maxtumquli bilan Durdi shoir o'rtasidagi aytishuv savol-javoblari o'zining qisqa, ixcham va aniqligi bilan global miqyosda kechayotgan "axborot bo'roni" ichida qolganidan tuyg'ulari quruqshab, ajablanish, hayratlanish, orzu-havas qilish hislari so'nib borayotgan asrimiz odamlariga ham juda-juda xush yoqadi. So'zlari soydagi tiniq suv kabi ravon oqadigan, har bandi to'rt misradan tarkib topgan bu savol-javob jami qirq sakkiz satrdan iborat bo'lib, unda Maxtumquli islom dinining mohiyati, insonning kundalik hayoti mazmuni, turmushning tunganmas tashvishlari, o'nqir-cho'nqir yo'llari oralab o'tadigan umrning ma'no-mazmuni, har bir kishi, albatta, bilishi zarur haqiqatlar bilan bog'liq muhim savollarni qo'yib, Durdi shoirga "Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar" deb murojaat qiladi. Talab, taftish, qo'rqitish ohangidan tamoman xoli savollarga Durdi shoir juda vazminlik, bosiqlik bilan: "Bizdan salom bo'lsin, javobimiz shu" deb oqilona javob qaytaradi. Maxtumquli bilan Durdi shoirning aqlliligini ko'rsatish ishtiyoqi, manmanlik, takabburlik iddaosidan tamoman xoli bu savol-javobi o'zaro samimiy hurmat, chinakam insoniy mehr-oqibat, ibrat namunasi bo'la oladigan tenglik tuyg'usiga asoslanganligi bois ko'ngilga yorug', porloq hislar olib kiradi. "Savol-javob" ning matni bilan tanishgan, tinglagan har bir kishi o'zida, albatta, bu holatni sezadi va bundan beixtiyor mamnun bo'ladi.

"Maxtumquli: – U nimadir – qizil va ko'k o'sadi ? // U nimadir – oyog'i yo'q bosadi ? // U nimadir – yetti daryo kezadi? // Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber! // Durdi shoir: – U ekindir – qizil va ko'k o'sadi, // U ilondir – oyog'i yo'q bosadi, // U baliqdir – yetti daryo kezadi, // Bizdan salom bo'lsin, javobimiz shu! // Maxtumquli: – U nimadir – yoqasi bor, yoni yo'q ? // U nimadir – qanoti bor, qoni yo'q ? // U nimadir – odam yutar, joni yo'q? // Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber! // Durdi shoir: – U kafandir – yoqasi bor, yoni yo'q, // Kapalakdir – qanoti bor, qoni yo'q, // Qora yerdir – odam yutar, joni yo'q, // Bizdan salom bo'lsin, javobimiz shu! // Maxtumquli: – U nimadir – darvozasiz qal'adir? // U nimadir – derazasiz binodir? // U nimadir – bir-biridan a'lodir? // Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber! // Durdi shoir:–U ko'ngildir – darvozasiz qal'adir, // U qabrdir – derazasiz binodir. // Ul oy-kundir – bir-biridan a'lodir. // Bizdan salom bo'lsin, javobimiz shu! //Maxtumquli: –U nimadir – yemadilar, to'yadilar? // U nimadir – ulug' kunga qo'yadilar? // U kim edi – tovonidan so'yadilar? // Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber! // Durdi shoir: – U diydordir – yemadilar, to'yadilar, // Ul namozdir – qiyomatga qo'yadilar. // Nasimiyni tovonidan so'yadilar (Imomiddin Nasimiy (1370 – 1417) ozarbayjon shoiri, Misr sultoni Muayyaddin Nasimiyni dahriylikda ayblab, tiriklayin terisini shildirgan), // Bizdan salom bo'lsin, javobimiz shu! // Maxtumquli: –U nimadir – yetti o'lka kezadi ? // U nimadir – belin bir zot ezadi ? // U nimadir – odam kabi sezadi ? // Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber! // Durdi shoir: –U cho'pondir, yetti o'lka kezadir, // U quyundir – daraxt belin ezadi, // Bedov otlar odam kabi sezadi, // Bizdan salom bo'lsin, javobimiz shu! // Maxtumquli: –U nimadir – tuproq uzra surinmas? // U nimadir – odamlarga ko'rinmas? // U nimadir – hech bir to'nga o'ranmas? // Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber! // Durdi shoir: –Eranlardir – xor-zor bo'lib surinmas, // Ul balodir – kelsa, ko'zga ko'rinmas, // Yolg'on guring hech bir to'nga burkanmas, // Bizdan salom bo'lsin, javobimiz shu! //".



Shoirning “Savol-javob” singari o‘rtanib, yonib yozgan she‘rlari ta‘siriga tushgan har bir odam o‘zining hayot atalmish abadiy kurash maydonida turganini his etib, qalbidagi zavq-shavqi shiddatlanishi barobarida, botinida o‘zining holi, ahvoli, qilmish-qidirmishlarini xayolidan o‘tkazib, xavotiri kuchayadi. “Savol-javob”dagi so‘zlarning jarangi, savollarning salmoqdorligi o‘quvchi, tinglovchilarning hissiyotlarini junbushga keltirib, zavq bag‘ishlasa, javoblarning turmush hodisalari bilan mustahkam bog‘lanib, mantiqan asoslangani, rosti, qoyil qoldiradi. Chunki bu “Savol-javob”da Ollohga, uning payg‘ambari Muhammad alayhissalomga chinakam muhabbat, hayotsevarlikka asoslangan insonparvarlikka, jamiki ezgu amallarga sidqidildan intilish istagi aks etadi. Maxtumquli tasavvurda hayot “sahna”sida turganicha uzoq-uzoqlarga tikilib, savol berayotganga, Durdi shoirning mantiqli javoblarini eshitgach esa ularning ma‘no-mazmunini idrok etganicha mahzun, o‘ychan bo‘lib qolgan bir holatda namoyon bo‘ladi. “Savol-javob”da ham, “Saylanma”, “Dunyo o‘tib boradur”dagi boshqa she‘rlarda ham o‘rtanib, yonib yashagan ulug‘ mutafakkirning kundalik turmush bilan bevosita bog‘liq va unda ko‘p kuzatiladigan, lekin boshqa kitoblarda yozilmagan teran, noyob mushohadalari mavj uradi. Bu shoir o‘z she‘rlarida, jumladan, savol-javob va aytishuvlarida ko‘pchilikning dilida turgan, lekin tiliga chiqara olmaydigan so‘zlarni topadi, jarangdor, ta‘sirchan gaplar silsilasini tizadi, mumtoz adabiyotning ko‘p namoyandalari singari aruz ohanglariga moslashish maqsadida bo‘g‘ilib zo‘riqmaydi.

Maxtumquli aksariyat qalamkashlardan farqli holda, nima uchun so‘z aytayotgani, pand-nasihat, o‘gitlarini she‘r shakliga solib yozishdan maqsadi nima ekanini juda yaxshi biladi. Chunki u bu missiya, ayni vazifa uning zimmasiga ilohiy ilhom ko‘rinishida yuklatilganini savqitabiy tarzda chuqur idrok qiladi. Shu bois hayot hodisalaridagi oddiylik va murakkablik qorishig‘ini, undagi tunganmas, sarhadsiz ziddiyatni barchaga birday tushunarli so‘zlar vositasida juda ta‘sirchan qilib ifodalaydi. Serg‘alva kechgan ko‘hna tarix ham, sur‘ati tez o‘zgarishlarga to‘la hozirgi zamon voqeligi ham pand-nasihat, o‘git yo‘lida she‘r bitish borasida shoirlik kamolotiga erishgan Maxtumqulining yozganlarini qancha-qancha avlod jon qulog‘i bilan tinglaganidan guvohlik beradi. Bu shoirning o‘rtanib, yonib yozgan she‘rlarini kasb-kori, tirikchilik tarzi qandayligidan qat‘iy nazar, barcha odamlar mutolaa qilganida entikib hayajonlanadi, eshitayotganida esa beixtiyor quvonadi va ayni chog‘da o‘ylanib, mahzun bo‘lib qoladi. She‘r ixlosmandlari, shoirlikka da‘vogarlar, havasmandlar mumtoz adabiyot namoyandalari orasida Maxtumqulining she‘rlariga ko‘p murojaat qilishadi. Chunki ular bu bulbul shoirning she‘riyatidan qalblariga quvvat bo‘lib quyiladigan, ruhlariga malham kabi yoqadigan juda kuchli ma‘naviy ozuqa olishadi. Bu esa islom dinining insonparvarlik g‘oyalarini ulug‘lab, ezgulikni sharaf lab, odamlarni haqiqatga sadoqat bilan yashashga, ellarni o‘zaro mehr-oqibat, ishonch, hamkorlikni mustahkamlashga da‘vat qilib, o‘rtanib, yonib she‘rlar yozgan ulug‘ turkman mutafakkiri Maxtumquli ijodi hayotni, yashashni sevuvchi har bir odam uchun, o‘z erkini, insoniy qadr-qimmatini qadrllovchi barcha xalqlar uchun doimo ardoqli va hamisha qadrli bo‘lib qolishiga mustahkam zamin yaratadi.

#### **Iqtiboslar/ Чиски/ References/ Kaynaklar**

- 1-Ashyrow Annagurban. Magtymguly, Eserler Ýgyndysy. – Ashgabat, 2013.
- 2-Kenjabeq Mirzo. Oshiqlar Haq Ishqida. – Toshkent, 2020.
- 3-Kurambaýew Karimboy, Mämmedow Ahmet. Köñül Gözgülisi. – Ashgabat, 2014.
- 4-Mustakow Romanguly. Magtymguly we Gündogar Edebiyaty. – Ashgabat, 2014.
- 5-Yag‘mur Oraz. Maxtumqulinoma. – Toshkent, 2016.

**BULLETIN OF THE  
INTERNATIONAL JOURNAL  
“TURKOLOGICAL  
RESEARCH”**

In order to implement programs and projects developed to accelerate the relationship envisaged at the summit of the Organization of Turkic States held in Samarkand, as well as to coordinate and highlight the research work carried out in the field of Turkic studies, the International Journal “Turkological Research” at Samarkand State University named after Sharof Rashidov passed the state registration. The journal is intended to publish the results of scientific research in the field of Turkic languages and dialects, the history of linguistic and literary relations of the Turkic peoples of Central Asia, the socio-cultural field. There are such headings as a young researcher, memory and our anniversaries. Articles written in Uzbek, Turkish, Russian, English and all Turkic languages are accepted.

The scientific journal is based on the decision of the Higher Attestation Commission of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan dated May 8, 2024 and numbered 354/5; It is included in the list of scientific publications that are recommended for candidates to receive the Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) academic degrees in the fields of history and philology to publish their scientific results due to their theses.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES  
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

**CONTACT ADDRESS:**

**Mailing Address:**

140104, University boulevard, 15,  
Samarkand, Uzbekistan,

Research Institute of Turkology under  
Samarkand State University named after  
Sharof Rashidov

**Phone:**

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

**Telegram ID:**

@turkologiya1

**Email:**

turkologiya.samdu@gmail.com

**Website:**

<https://turkologiya.samdu.uz>



**REQUIREMENTS FOR ARTICLES:**

1. The article is presented on 8-10 pages;
2. Article structure:
  1. The text of the article should be prepared in Times News Roman font, size 14, left: 3 cm, right: 1.5 cm, top and bottom: 2 cm; in A4 format in 1.15 intervals.
  2. The title of the article, surname, name and patronymic of the author (authors) are indicated in full and written in capital letters.
  3. Position, academic title, place of work (study), region, republic, telephone and e-mail address of the author (authors) are indicated in full.
  4. The abstract should consist of a brief content and importance of the article, results.
  5. At the beginning of each article, there should be an annotation in Uzbek, Turkish and English.
  6. The abstract should be no more than 120-150 words.
  7. At the bottom of the abstract, 7-10 keywords should be given that illuminate the content of the article.
  8. The article should be prepared in the following form:
    - a) Introduction;
    - b) Main part;
    - c) Results and Discussions;
    - d) Conclusions;
    - e) List of literature (References) – in alphabetical order;
    - f) Citations are given in brackets in the form of the author's surname - date of publication - page (Muminov, 2020: 25);
    - g) Figures, drawings, tables, diagrams are designated in Arabic numerals as "Figure". Signs or pointers are placed under the figure, in the next line, in the middle and highlighted in bold.
3. The author(s) are responsible for the scientific validity, reliability and plagiarism of the information and evidence presented in the article;
4. Articles will be considered. The journal publishes only articles recommended by experts;
5. Articles not requested will not be published and will not be returned to the authors;
6. Only 1 article of the author is published in 1 issue of the journal.

**“TURKOLOGIK  
TADQIQOTLAR” XALQARO  
JURNALINING AXBOROT  
XATI**

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-ma’rifiy, ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan siyosat, Turkiy Davlatlar Tashkilotining Samarqandda o‘tkazilgan sammitida ko‘zda tutilgan o‘zaro aloqalarni jadallashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish hamda turkologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va yoritish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Turkologik tadqiqotlar” xalqaro jurnali ta’sis etildi. Jurnal turkiy til va shevalar, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari lisoniy va adabiy aloqalari tarixi, ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini e’lon qilishga mo’ljallangan. Jurnalda muharrir minbari, tadqiqotlar, ilmiy axborot, taqriz va e’tirof, ilmiy anjuman, yosh tadqiqotchi, xotira, yubilyarlarimiz kabi ruknlar mavjud. O‘zbek, turk, rus, ingliz va barcha turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Ilmiy jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning 2024-yil 8-maydagi 354/5-sonli rayosat qarori asosida tarix, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES  
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

## MUROJAAT UCHUN MANZIL:

### Pochta manzili:

140104, Universitet xiyoboni, 15-uy,  
Samarqand, O‘zbekiston,  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand  
davlat universiteti huzuridagi  
Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti

### Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

### Telegram ID:

@turkologiya1

### Elektron pochta:

turkologiya.samdu@gmail.com

### Veb-sayt:

<https://turkologiya.samdu.uz>



## MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 8-10 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
  1. Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm; 1,15 intervalda, A4 shaklida tayyorlanishi lozim.
  2. Maqola sarlavhasi, muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otaismi to‘liq holatda katta harflar bilan yozilishi kerak.
  3. Muallif(lar)ning lavozimi, ilmiy unvoni, ish (o‘qish) joylari, viloyat, respublika, telefoni va e-mail adresi to‘liq keltirilishi kerak.
  4. Annotatsiya, maqolaning qisqacha mazmun va ahamiyati, natijalardan iborat bo‘lishi lozim.
  5. Har bir maqola boshida o‘zbek, turk va ingliz tillarida annotatsiya bo‘lishi lozim.
  6. Annotatsiya 120-150 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan shaklda bo‘lishi kerak.
  7. Annotatsiyaning pastki qismida maqola mazmunini yorituvchi 7-10 ta tayanch so‘zlar keltirilishi kerak.
  8. Maqola quyidagi shaklda tayyorlanishi kerak:
    - a) Kirish (Introduction);
    - b) Asosiy qism (Main part);
    - c) Natijalar va muhokama (Results and Discussions);
    - d) Xulosalar (Conclusions);
    - e) Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi;
    - f) Havola(snoskalar)lar qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi (Mo‘minov, 2020: 25) shaklida keltiriladi;
    - g) Rasm, chizma, jadval, diagrammalar «Rasm» deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o‘rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
- Maqolada keltirilgan ma’lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko‘chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas’uldir;
- Maqolalar ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalargina jurnalda chop etiladi;
- Tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi;
- Jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

**БЮЛЛЕТЕНЬ  
МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА  
"ТУРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ"**

В целях реализации программ и проектов, разработанных для ускорения взаимоотношений, предусмотренных на состоявшемся в Самарканде саммите Организации Тюркских Государств, а также координации и освещения научно-исследовательской работы, проводимой в области тюркологии, Международный журнал, Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, «Тюркологические исследования» прошел государственную регистрацию. Журнал предназначен для публикации результатов научно-исследовательских работ в области тюркских языков и диалектов, истории языковых и литературных связей тюркских народов Средней Азии, социокультурной области. Есть такие рубрики, как молодой исследователь, память и наши юбилеи. Принимаются статьи, написанные на узбекском, турецком, русском, английском и всех тюркских языках.

Научный журнал на основании решения Высшей аттестационной комиссии (ВАК) Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 8 мая 2024 года под номером 354/5; Он включен в перечень научных изданий, рекомендуемых кандидатам на получение ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в области истории и филологии для публикации своих научных результатов по своим диссертациям.



**В ЖУРНАЛЕ ПУБЛИКУЮТСЯ  
СТАТЬИ ПО СЛЕДУЮЩИМ  
НАПРАВЛЕНИЯМ:**

- ✓ История социально-культурных отношений тюркских народов;
- ✓ Исследования тюркского мира;
- ✓ Диалектология тюркских языков;
- ✓ Геополитика тюркского мира;
- ✓ Изучение фольклора;
- ✓ Сравнительное языкознание и литературоведение;
- ✓ Литературные отношения и переводоведение.

## КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:

### Почтовый адрес:

140104, Университетский бульвар,  
15, город Самарканд, Узбекистан,  
Научно-исследовательский  
институт Тюркологии при  
Самаркандском Государственном  
Университете имени Шарофа  
Рашидова

### Телефон:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

### Telegram ID:

@turkologiya1

### Электронная почта:

turkologiya.samdu@gmail.com

### Веб-сайт:

<https://turkologiya.samdu.uz>



## ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ:

- К публикации принимаются статьи объемом 8-10 страниц;
- Структура статьи:
  1. Текст статьи должен быть выполнен шрифтом Times News Roman, размером 14 пунктов, слева: 3 см, справа: 1,5 см, сверху и внизу: 2 см; с межстрочным интервалом 1,15, формат листа А4.
  2. Название статьи, фамилия, имя и отчество автора(ов) должны быть написаны заглавными буквами в полном регистре.
  3. Должность, ученое звание, места работы(учебы), регион, Республика, телефон и адрес электронной почты автора(ов) должны быть указаны полностью.
  4. Аннотация должна состоять из краткого содержания и важности статьи, результатов.
  5. В начале каждой статьи должна быть аннотация на узбекском, турецком и английском языках.
  6. Аннотация должна содержать не более 120-150 слов.
  7. Внизу аннотации должно быть 7-10 ключевых слов, освещающих содержание статьи.
  8. Статья должна быть подготовлена в виде:
    - a) Вступление (Introduction);
    - b) Основная часть (Main part);
    - c) Результаты и обсуждение (Results and Discussions);
    - d) Выводы (Conclusions);
    - e) Литература (References) – в алфавитном порядке
    - f) Ссылка(сноски) приводится в скобках в виде фамилии автора – дата публикации – страница (Муминов, 2020: 25);
    - g) Рисунки, чертежи, таблицы, схемы нумеруются арабскими цифрами и обозначаются как «Рисунок». Знаки или указатели размещают под рисунком, в следующей строке, посередине и выделяют жирным шрифтом.
- Автор(ы) несут ответственность за научную обоснованность, достоверность и плагиат информации и доказательств, представленных в статье;
- Статьи рецензируются. В журнале публикуются только статьи, рекомендованные экспертами;
- Нереконмендованные статьи не публикуются и не возвращаются авторам;

## “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİNİN BÜLTENİ

Özbekistan Cumhuriyeti devletinin sosyal-eğitimsel ve bilimsel gelişme politikasının başarılı şekilde uygulanmasına yardımcı olmak amacıyla, Semerkant'ta düzenlenen Türk Devletleri Teşkilatının zirvesinde öngörülen karşılıklı ilişkilerin hızlandırılması için geliştirilen program ve projeleri uygulamak, bilimsel çalışmaları koordine etmek, Türkoloji alanında yürütülen araştırma çalışmaları Şeraf Reşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi, Uluslararası “Türkoloji Araştırmaları” dergisini tescil etmiştir. Dergi, Türk dili ve lehçeleri, Orta Asya Türk topluluklarının dil ve edebiyat ilişkileri tarihi, sosyo-kültürel alanlardaki bilimsel ve araştırma çalışmalarının sonuçlarını yayınlamayı amaçlamaktadır. Dergimizde editör kürsüsü, araştırma, bilim dünyasından, inceleme ve tanıma, bilimsel konferans, genç araştırmacı, hatıra, yıldönümleri gibi sütunlar yer almaktadır. Özbekçe, Türkçe, Rusça, İngilizce ve tüm Türk lehçelerinde yazılmış makaleler kabul edilmektedir.

Bilimsel dergi, Özbekistan Cumhuriyeti Yükseköğretim, Bilim ve İnovasyon Bakanlığı'na bağlı Yüksek Kabul Komisyonu'nun 8 Mayıs 2024 tarihli ve 354/5 sayılı kararına esasen; tarih, filoloji alanlarında Felsefe Doktoru (Doktora) ve Bilim Doktoru (DSc) akademik derecesini almaya aday kişilerin tezleri dolayısıyla bilimsel sonuçlarını yayınlaması tavsiye edilen ilmî yayınlar listesine dâhil edilmiştir.



### DERGİ AŞAĞIDAKİ ALANLARDA MAKALELER YAYINLAMAKTADIR:

- ✓ Türk Dünyasındaki sosyo-kültürel ilişkilerin tarihi;
- ✓ Türk Dünyası araştırmaları;
- ✓ Türk Lehçeleri diyalektolojisi;
- ✓ Türk Dünyasının jeopolitiği;
- ✓ Folklor çalışmaları;
- ✓ Karşılaştırmalı dilbilim ve edebiyat çalışmaları;
- ✓ Edebi ilişkiler ve çeviri çalışmaları.



## İLETİŞİM ADRESİ:

### Posta adresi:

140104, Üniversite Bulvarı, 15,  
Semerkant şehri, Özbekistan, Şeraf  
Reşidov adına Semerkant Devlet  
Üniversitesine bağlı Türkoloji  
Araştırmaları Enstitüsü

### Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

### Telegram ID:

@turkologiya1

### E-posta:

turkologiya.samdu@gmail.com

### İnternet sitesi:

<https://turkologiya.samdu.uz>



## MAKALE YAZIM KURALLARI:

- Makale 8-10 sayfada sunulur;
- Makale'nin yapısı:
  1. Makale metni Times New Roman yazı tipinde, 14 punto büyüklükte, sol kenarından 3 cm'lik, sağ kenarından 1,5 cm'lik, üst ve alt kenarından 2 cm'lik boşluk bırakılarak, tek sütün olarak, 1,15 satır aralığında, A4 boyutunda hazırlanmalıdır.
  2. Makalenin başlığı, yazar(lar)ın soyadı, adı ve baba adı tam olarak büyük harflerle yazılmalıdır.
  3. Yazar(lar)ın pozisyonu, akademik ünvanı, çalıştığı (öğrendiği) yer, bölgesi, cumhuriyeti, telefon ve e-posta adresi eksiksiz olarak verilmeli.
  4. Özet, makalenin amacını, önemli bulgularını ve sonuçlarını içermelidir.
  5. Her makalenin başında Özbekçe, Türkçe ve İngilizce özet bulunmalıdır.
  6. Özet, 120-150 sözcüğü geçmeyecek şekilde yazılmalıdır.
  7. Özeti alt kısmında makalenin içeriğini tanımlayacak en az 7, en fazla 10 anahtar kelimeye yer verilmelidir.
  8. Makale, aşağıdaki formatda hazırlanmalıdır:
    - a) Giriş (Introduction);
    - b) Ana bölüm (Main part);
    - c) Sonuçlar ve tartışma (Results and Discussions);
    - d) Sonuçlar (Conclusions);
    - e) Kaynakça (References) alfabetik olarak sıralanmalıdır;
    - f) Bağlantılar (dipnotlar) yazarın soyadı - yayın tarihi - sayfa şeklinde parantez içinde verilecektir (Muminov, 2020: 25);
    - g) Resim, çizim, tablo, diyagramlar "Resim" olarak Arap rakamları ile kaydedilir. İşaretler resmin altına, bir sonraki satıra, ortaya yerleştirilir ve koyu yazılır.
- Makalede sunulan bilgi ve kanıtların bilimsel dayanağı, güvenilirliği ve intihalinden yazar(lar) sorumludur.
- Makaleler hakemli olacaktır. Dergide sadece uzmanlar tarafından tavsiye edilen makaleler yayımlanır.
- Talep edilmeyen yazılar yayınlanmayacak ve yazarlarına iade edilmeyecektir.
- Derginin 1 sayısında yazarın sadece 1 makalesi yer alacaktır.

# TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL  
RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL  
DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Muharrir:

Prof. J.Eltazarov

Musahhih va texnik muharrir:

R. Shokirov



ISSN 2992-9229

2024-yil 20-mayda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2024-yil 24-mayda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. «Times New Roman» garniturası.

Offset qog‘ozı. Shartlı bosma tabog‘ı –9.

Adadı 20 nusxa. Buyurtma № 145

---

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.





ISSN 2992-9229